

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI IJTIMOIIY FANLAR
KAFEDRASI**



PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

FANIDAN

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohalari: 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
300000 – Ishlab chiqarish– texnik soha

Ta’lim sohalari: 510000 – Sog‘liqni saqlash
320000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari

Ta’lim yo’nalishi: 5320500-Biotexnologiya
(farmatsevtik biotexnologiya)

“Psixologiya va pedagogika” o‘quv –uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2021 yil “04” 06 dagi 121-sonli buyrug‘i va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining 2021 yil “13” 04 dagi 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Psixologiya va pedagogika” modul dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

L.B.Sultonova Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi,

D.O.Kamalova Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A.I.Rasulov -O‘zMU, psixologiya kafedrası dotsenti psixologiya fanlari nomzodi

F.O Mirzayeva -Nizomiy nomidagi TDPU, “Ijtimoiy pedagogika” kafedrası mudiri, PhD, dotsent

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Ijtimoiy fanlar soha uslubiy Kengashining 2021yil 18.06 dagi 11-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengashi raisi

K.K.Ismailov

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashining 2021yil 28.06 dagi 11-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi

Z.A.Yuldashev

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2021yil 29.06 dagi 11-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

Kengash kotibi

V.R.Xaydarov

M U N D A R I J A

	KIRISH	4
	I.O'QUV MATERIALLAR	
1	Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari	5
2	Shaxsning psixik bilish jarayonlari	15
3	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat	41
4	Pedagogika fan sifatida. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati.	53
5	Ta'lim-tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati	65
	II.Amaliy mashg'ulotlar	
1	Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari	84
2	Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari	86
3	Shaxsning psixik bilish jarayonlari	87
4	Shaxsning psixik bilish jarayonlari	90
5	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat	93
6	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat	95
7	Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat	96
8	Pedagogika fan sifatida. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati	97
9	Pedagogika fan sifatida. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati	100
10	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Istiqlol yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti	106
11	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Istiqlol yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti	107
12	Ta'lim-tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati	108
13	Ta'lim-tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati	120
	III.GLOSSARIY	126
	IV.ILOVALAR	
1	Fan dasturi	130
2	Ishchi dastur	142
3	Tarqatma materiallar	155
4	Talabalar bilimni baholash mezonlari	160

Kirish

Ushbu uslubiy o'quv majmua Toshkent farmatsevtika institutning Biotexnologiya yo'nalishi talabalari "Psixologiya va pedagogika" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda, mustaqil ish topshiriqlarini, nazorat ishlarini bajarishlarida talabalar foydalanadilar. Shuningdek, o'z bilimini tekshrib ko'rishi uchun savollar va testlar kiritilgan bo'lib talabalarga o'z ustida ishlashga ko'mak beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni ijrosini va O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni 2020-yil 23-sentabrda taqdim etilgan bo'lib unda 11-bob, 75-moddadan iboratdir. Ushbu me'yoriy-hujjatlar kadrlarni kasbiy tayyorlash kompetensiyasini rivojlantirish asosi sifatida xizmat qiladi. Kasb ta'lim texnologiyalari va metodikasi fani talabalarning umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tatbiq etish, professional ta'limda umumkasbiy va maxsus fanlari bo'yicha dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, ularni tayyorlashni o'rgatuvchi fan bo'lib hisoblanadi. Talabalarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs – professional ta'limi o'qituvchisini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan aniq strategik maqsadni ilgari suradi.

1-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALAR, TADQIQOT METODLARI

Режа:

1. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Psixologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari.
3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'рни.
4. Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari
5. Psixologiya fanining tarmoqlari

T a y a n c h s o ' z v a i b o r a l a r :

Psixologiya, rux, aks ettirish, psixika, Aristotel, refleks, jarayonlar, individual xususiyatlar, vazifalar, psixik holatlar. prinsip, determinizm, ong, faoliyat, amaliyot, nazariya, soha, ijtimoiy psixologiya , tadqiqot, psixik taraqqiyot Inson omili, ilmiy psixologiya, inson ruhiy dunyosi, psixika, psixik hodisalar, psixik xolatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, eksperimental psixologiya, kognitivizm, bixeviorizm, neobixeviorizm, geshtaltpsixologiya, interaksionizm, gumanistik psixologiya, freydizm, neofreydizm.

Mashg'ulotni o'tkazish joyi: auditoriya

Mashg'ulotning jihozlanishi: tarqatma materiallar, texnik vositalar

Mashg'ulotning davomiyligi: 2 soat

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda umumiy psixologik tushunchalar, shaxsning o'zida kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayonlar, shaxsni psixologik tadqiq qilish usullari haqida tushunchaga ega bolishi, psixik faoliyatning asosiy qonunini belgilash, uning rivojlanish yo'llarini aniqlash, har bir psixik jarayonning asosida qanday mexanizm borligi, uning o'zgarish jarayonlarini ochib berish masalalarini tushuntirish va ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Kutilayotgan natija: Talabalar insonning sog'lom ruhiyati uning har bir faoliyati uchun zarur ekanligini tushunib etishlari, psixologik bilimlarning o'рни va ahamiyati haqida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Psixologiya fanining mazmun va mohiyati bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish va o'qitishning samaradorligiga erishishini ta'minlash bo'yicha ma'lumotlarni oladilar. Talabalarda o'ziga, faoliyat turlari hamda insonlarga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllanishi yo'llarini ham o'rganishi kerak.

Mashg'ulot mazmuni:

Nazariy qism:

Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Inson o'zini o'rab turgan ijtimoiy muhitda yashaydi va harakat qiladi. U har qanday ehtiyojga muhtojdir va uni qanoatlantirishga va qondirishga intiladi. Tevarak-atrofdagi muhitdan har xil axborotlar hamda ma'lumotlarni qabul qiladi va o'zini shunga muvofiqlashtirishga harakat qiladi. Dunyodagi

real obrazlarni miyasida ongli shakllantirishga kirishadi, shunga qarab o'zining shu muhitda qanday harakat qilish kerakligi to'g'risida u yoki bu voqeaga qanday yondashish uchun rejalar tuzadi. O'zining oldiga qo'ygan maqsadlarini o'z harakat natijalariga solishtirib ko'radi, o'z boshidan juda katta hissiy holatni kechiradi. Hayot faoliyatidagi ba'zi kamchilik va xatoliklarni to'g'rilash yo'llarini axtaradi. Buning uchun o'ylaydi, fikr yuritadi, hayajonlanadi. Ba'zan o'zini tuta olmay pessimizmga berilib ketadi. Yoki o'zini tutib oladi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishiga butun kuchini qaratadi. Mana shu holatlarning hammasi kishining psixik faoliyati hisoblanadi. Ana shu psixik faoliyat qonunlarini o'rganuvchi fan psixologiya fanidir.

Psixologiya fanining o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan muammolari juda xilma-xil bo'lib, u eng avvalo, psixik faoliyatning asosiy qonunini belgilash, uning rivojlanish yo'llarini aniqlash, har bir psixik jarayonning asosida qanday mexanizm borligi, uning o'zgarish jarayonlarini ochib berish masalalarini o'rganadi. Psixologiya psixik faoliyatning u yoki bu sharoitda qanday ro'yobga chiqqanligini o'rganish bilangina shug'ullanib qolmasdan, bu jarayonlarni qanday boshqarib borish masalalarini ham ilmiy asosda o'rganadi. Shuning uchun ham ilmiy psixologiya boshqa barcha o'rganilayotgan predmetlar orasida eng asosiy fanlardan hisoblanadiki, uning jamiyat rivojlanishi bilan ahamiyati yanada ortib va takomillashib boraveradi.

Turli mazmundagi taassurotlar tufayli paydo bo'ladigan hissiy holatlar hayotimizning turli-tuman ko'rinishlaridirki, bularning hammasini psixologiya fani o'rganadi.

“Psixologiya” so'zi ikkita grek so'zlaridan – “psyche” – jon, ruh va “logos” – ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixika deb ta'rif berishadi. **Psixika** – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli (ba'zan ongsiz) tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, his qilishimiz, tasavvur qilib, anglashimizni ta'minlaydi. **Psixika** lotincha “psyuxe” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ruh, jon degan ma'noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlariga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, uning ichki dunyosi, ruhiy hayoti deb ham ataladigan tushunchalarni hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, psixik holatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar degan iboralarga ham juda ko'p duch kelamiz.

Psixologiya fanining bugungi kundagi vazifalari, tabiiy, uning predmetiga biroz o'zgarishlar kiritadi. Zero, inson ongi va qalbi uchun kurash muammosi butun dunyo miqyosida dolzarb turgan masala sifatida

qaralishini inobatga olsak, jamiyatimizning har bir a'zosi, mustaqil yurt fuqarolari ongining milliy-madaniy muhit ta'sirida, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishi, ular qalbida sof iymon va sog'lom dunyoqarashlar, mustaqil fikrlashning shakllanishi mexanizmlarini o'rganish ham fanning muhim predmeti hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi yoshlarda aniq maqsad va maslakning bo'lishi, milliy iftixor va g'urur tuyg'ularining to'g'ri tarbiyalanganligi yaxlit xalq va millat manfaatlari bilan uyg'undir. Psixologiya fan sifatida aynan har bir shaxsda o'ziga, yurtdoshlariga, turli faoliyat turlari hamda dunyoga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllanishi yo'llarini ham o'rganishi kerak.

Ilmiy psixologiyaning predmeti deganda, avvalo psixik hayotning aniq faktlari nazarda tutiladi, psixik hayotga doir har bir fakt esa ham miqdor, ham sifat jihatidan xarakterli xususiyatga ega.

Psixologiyaning o'rganadigan obyekti **psixik hodisalar**dir. Psixik hodisalar o'z navbatida uch asosiy guruhga bo'linadi: psixik holatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar. **Psixik holatlar** psixik faoliyatning vaqtinchalik dinamikasi bilan xarakterlanadigan hodisalar bo'lib, bu kishining ichki dunyosining muhim tomonlarini hisobga olgan holda faoliyatga ta'sir etadigan omillardir. Psixik holatlarga charchash (toliqish), emotsional zo'riqish (affekt, stress), monotoniya (diqqinafaslik, zerikish), uyqu holati, uyg'oqlik holati va boshqalarni kiritish mumkin. **Psixik jarayonlar** - sezgi a'zolariga tashqi ta'sir shakllari, inson va tashqi muhit, ichki kechinmalari o'rtasida bog'lanishlar shakli bo'lishi mumkin. Odatda psixik jarayonlar deganda sezgi, idrok, tafakkur, hayol, xotira, hissiyot, iroda tushuniladi.

Psixik hodisalarning uchinchi guruhi - **psixik xususiyatlar** bo'lib, odamdagi takrorlanmas, bir-biridan farqlab olish uchun zarur bo'lgan xususiyatlardir. Bu xususiyatlar kishining o'ziga, atrofidagi odamlarga, narsalarga, mehnatga munosabatlarida, bir so'z bilan aytganda uning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan xususiyatlardir. Psixologiya fan sifatida psixika faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi.

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq va umumiy qonuniyatlar va prinsiplarga bo'ysunadi. Demak, psixologiyaning predmeti aniq shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari, amallari va

faoliyatlarining o'ziga xos tarzda ongi tomonidan aks ettirilishidir, deb ta'riflash mumkin.

Inson psixikasini o'rganishda fiziologiyani oliy nerv faoliyatini tadqiqotlarida erishilgan yutuqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan A.R.Luriyaning bosh miya bloklari spetsializatsiyasi ta'limoti. U 3 ta blokni farqlaydi:

- a) energetik – miya normal ishlash tonusini quvvatlash;
- b) qabul qilish, qayta ishlash va axborotni saqlash;
- v) faoliyatni programmashtirishni tartibga solish va nazorat qilishni ta'minlash.

Bosh miya yarimsharlari funksiyalarining muayyan yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Chap yarimsharlar	O'ng yarimsharlar
<i>Xronologik tartib</i>	<i>Kundalik vaqt</i>
<i>Karta, ommalarni o'qish</i>	<i>Aniq fazo</i>
<i>Ism, so'z, simvollarni esda saqlab qolish</i>	<i>Obrazlarni, aniq hodisalarni esda saqlab qolish</i>
<i>Nutq aktivligi</i>	<i>Emotsional xolatni his etish</i>
<i>Olamni quvnoq, yengil ko'rish</i>	<i>Olamni ma'yus, g'amgin ko'rish</i>
<i>Detalli idrok</i>	<i>Bir butun obrazli idrok</i>

Ong faqat insonga xos bo'lib, obyektiv voqelikni psixik aks ettirishning oliy formasidir. Ong strukturasi quyidagi elementlar kiradi:

<i>Subyekt va obyektni farqlash (o'zlikni anglash va o'z-o'zini bilish).</i>	<i>Insonning maqsadli, alohida munosabatlarini kiritish (hissiyot olami).</i>
--	---

Ong shakllanishining asosiy sharti tildir. Inson psixikasining ong osti xossalari bu inson xulq-atvoriga, ong mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan anglanmaydigan psixik protsesslar yig'indisidir (masalan: intuitsiya, subinsor idrok).

Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan aniq anatomik-fiziologik apparatlarning ishlashini taqozo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiati va harakatini boshka fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiya, kebernetika va boshkalar) bilan birgalikda ochib beradi.

Shunday qilib, psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi.

Psixologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari.

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo'lishi haqida yana bir qancha turli-tuman fikrlar bor. Uzoq asrlar davomida psixika va uning paydo bo'lishi, taraqqiyoti masalalariga har xil nuqtai nazardan yondashib kelindi.

Psixologiyani ruh to'g'risidagi fan sifatida shakllanishida quyidagi **4 asosiy bosqichni** ajratish mumkin:

1. Psixologiya ruh to'g'risidagi fan – 2,5 ming yil avval inson hayotidagi mavhum xossalarini ruh orqali tushuntirishga harakat qilganlar.

2. Psixologiya ong to'g'risidagi fan sifatida XVII asr. Fikrlash, his qilish, istaklar ong deyilgan. O'rganish metodlari - introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish).

3. Psixologiya xulq-atvor to'g'risidagi fan sifatida – XX asr boshlari. Ko'rish mumkin bo'lgan hodisalar kuzatilgan – xulq-atvor harakatlari, Reaksiyalar. Motivlar hisobga olinmagan.

4. Psixologiya psixik qonunlar, mexanizmlarni o'rganadigan fan sifatida - zamonaviy bosqich.

Psixologiya tarixida psixika va uning taraqqiyoti haqida turli-tuman fikrlar yuqoridagilardan tashqari ham juda ko'p. Psixik hodisalarni materialistik nuqtai nazardan talqin etishda mashhur grek faylasufi Aristotelning (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) xizmati kattadir. Aristotel qadimgi faylasuflardan birinchi bo'lib psixologiyani alohida fan sifatida qaradi, psixik hodisalarga materialistik nuqtai nazardan yondashdi. Uning “Etika”, “Ritorika”, “Metafizika”, “Hayvonlar tarixi” kabi asarlarida turli psixik hodisalarga oid fikrlar juda ko'p. Psixologiya bo'yicha birinchi ilmiy asar Aristotelning «Ruh to'g'risida» traktati hisoblanadi.

Aristotel o'zigacha bo'lgan faylasuflarning, jumladan, o'z ustози Platonning psixologik qarashlarini tahlil qildi. Aristotelning psixologik ta'limotida ruh va tananing o'zaro munosabati muammosi muhim o'rin tutadi.

Geraklit, Demokrit, Aflotun, Aristotellarning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta, asos bo'ldi. Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hozir biz psixika deb atayotgan darajaga nisbatan qo'llanila boshladi. Psixika kategoriyasi zamirida ong haqidagi tushuncha maydonga keldi. Kishi faqat idrok va tafakkurga ega bo'lib qolmasdan, ularni unga mansubligini e'tirof etishga ixtiyoriy harakatlar qilibgina qolmasdan, balki bu harakatlarni uni o'zi qilayotganini bilishga ham qodirdir.

Ingliz olimi Jon Lokk (1632-1704) empirik (tajriba) asosidagi ta'limotni empirik psixologiyani yaratdi, shundan keyin rus olimlari I.M.Sechenov, I.P.P avlov, I.E.Vvedenskiy, A.A.Uxtomskiy inikos nazariyalarini yaratdilar. Refleks haqidagi tushuncha organizmning tashqi ta'sirga qonuniy javob reaksiyasi sifatida paydo bo'ldi. I.M.Sechenov (1829-1905) «Bosh miya reflekslari» (1963) asarida «ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan

iboratdir», degan xulosaga kelgan edi. I.M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariy qoidalari I.P.Pavlov (1849-1939) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi va aniqlashtirildi. U hayvonlarni shuningdek, odamning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etdi. I.P.Pavlovning ushbu qonuniyatlarga nisbatan barcha qarashlari odatda ikki xil signal sistemasi haqidagi ta'limot deb aytiladi.

O'rta Osiyo xalqlari boshqa dunyoviy fanlar qatori psixologiya fani sohasida ham boy merosga ega. Xalqimizning buyuk namoyandalari, butun dunyoda nomi tarqalgan mutafakkirlar, olimlar va shoirlar inson ruhiy jarayonlarini talqin etishda o'z zamonasi uchun ilg'or fikrlarni olg'a surdilar. Ularning psixologiya sohasidagi fikrlari, milliy psixologiya tarixi va hozirgi mustaqillik davri uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir. IX - XI asrlarda ijod etgan mutafakkirlarimiz hayoti O'rta Osiyo, umuman yaqin va O'rta Sharqda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan, har xil ijtimoiy tabaqalar o'rtasida kurashlar avjiga chiqqan, turli-tuman g'oyaviy oqimlar orasida keskin kurashlar boshlangan bir davrga to'g'ri keldi.

Shu davrda ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi kabi inson ruhi (psixikasi)ni talqin qilish borasida ham turli yo'nalishlar va oqimlar o'rtasida keskin kurash ketar edi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy ijodi materialistik yo'nalishni yanada rivojlantirish, mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etdi. O'rta asr psixologik qarashlarida O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylarning psixologiya sohasidagi fikrlari muhim ahamiyatga egadir.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy (870-950-951), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Abu Ali ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1048-1131), Mirzo Ulug'bek (1394-1449) inson psixikasi, yosh avlodni tarbiyalashda o'z fikr –mulohazalarini boy meros qilib qoldirganlar.

Forobiyning ruhiy jarayonlar haqidagi ta'limoti, ya'ni psixologiya ilmining rivojlanishiga qo'shgan hissalarini uning falsafiy ta'limoti bilan uzviy bog'langan. Forobiyning inson va insonning ruhiy jarayonlari to'g'risidagi fikrlari uning dunyoqarashi sistemasida diqqatga sazovor bo'lgan progressiv fikrlardandir. U insondagi ruhiy jarayonlarni sanab o'tish bilangina chegaralanmay, balki bu jarayonlarning kelib chiqishi, tartibi, har birining roli to'g'risida ham mulohaza yuritdi, inson ruhiy quvvatlari - psixik jarayonlari uning asarlarida anchagina keng yoritiladi.

Forobiy hozirgi psixologiya ilmi tomonidan o'rganiladigan va insonda mavjud bo'lgan deyarli barcha ruhiy jarayonlar to'g'risida o'z zamonasi uchun anchagina mukammal tasavvurga ega bo'lgan va ularni asosan turini talqin etgan.

Abu Ali ibn Sinoning psixologiya masalalari bilan shug'ullanishiga, o'zidan ilgari o'tgan Sharq mamlakatlari olimlari tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni o'rganib, fanning bu sohasi bo'yicha ham o'zining fikrlarini bildirish, antik dunyo olim, faylasuflarining ta'siri ham katta rol

o'ynadi. Xususan Aristotel Ibn Sinoning falsafada "birinchi o'qituvchisi" edi. U Aristotelning "Jon haqida"gi asari bilan yaxshi tanish edi, olimning meditsina sohasidagi olib borgan ishlarida odam anatomiyasi, fiziologiyasi va nerv sistemasini yaxshi o'rganish va shu asosda har xil kasalliklarni davolash jarayonida kishilarning psixik xususiyatlarini bilish zarur edi.

Ibn Sino Forobiyning sezgilar to'g'risidagi ta'limotini rivojlantirib, insonda beshta sezgi (ko'rish, eshitish, hid bilish, maza va teri-tuyg'u) mavjud ekanligini, sezgilar orqali, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning ta'siriga javob qaytarilishi, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to'xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib boradigan markazi bor ekanligini ishonch bilan bayon etadi. Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, hayol xotirasi va iroda sifatlariga yuksak baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-birlari bilan mustahkam bog'liq ekanligini anglaydi.

Ayniqsa, Ibn Sinoning temperament (mijozlar) to'g'risidagi fikrlari tabiiy-ilmiy jihatdan diqqatga sazovordir. Bu sohadagi ta'limot qadimgi Gretsiya olimi Gippokratning (miloddan avvalgi V asr) nazariyasiga asoslanadi. Ibn Sino ham Gippokrat kabi odam tanasida to'rt xil modda (safro, qon, qora o't, balg'am) bor, shu moddalardan birortasi organizmda ko'proq bo'lsa, bu odam mijozining (temperamenti) tipini belgilaydi.

XIX asr oxirlarida, aniqrog'i, 1879-yilda nemis olimi Vilgelm Vundt Leybnis universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologik laboratoriyaga asos soldiki, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o'zini ko'rsatishga haqli ekanligini isbotladi. "Psixologiyaning otasi" hisoblangan Vilgelm Vundt esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar to'plashga o'z diqqatini qaratdi.

Psixologik metodlarining klassifikatsiyasi.

Psixologik tadqiqot metodlari psixologiya amal qiladigan nazariy prinsiplarga va psixologiya hal etayotgan aniq vazifalarga bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi. Psixologiyada empirik metodlarni qo'llash muammosini ko'rib chiqilayotganda ularni psixologik metodlar tizimidagi o'rnini aniqlashdan boshlash kerak.

Psixologiya fanining asosiy metodlari

Kuzatish metodi	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
So'roq metodi	Og'zaki Yozma

	Erkin (suhbat) Standartlashtirilgan
Test metodi	Test-so'rov Test-topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test
Eksperiment	Tabiiy Lobaratoriya

Albatta obyektga ta'sir etgan holda, ikkinchi metod jarayoni esa uni faqat ro'yxat qilish bilan chegaralanadi. Kuzatuvchi ro'yxatni to'g'ridan-to'g'ri yoki savolnoma asosida yozib boradi. Xuddi shu narsa ta'sir qilish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Eksperiment jarayonida to'g'ridan-to'g'ri muloqot metodi orqali o'tkaziladi. Bu ikkinchi jarayon psixologik eksperiment metodlaridir. Uchinchi jarayonda eksperimentator kuzatuv jarayonida tabiiy usullardan yoki «tushunish metodi»dan to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvchiga nisbatan qo'llaydi. Eksperiment jarayonida kuzatuvchi vazifalarni faol bajaradi. Kuzatish, so'rov davomida esa unga hech qanday vazifa berilmaydi va u o'zini erkin tutadi.

Kuzatish metodining asosiy afzalligi shundan iboratki, kuzatish tabiiy sharoitda o'tkaziladi, kuzatish kuzatilayotgan shaxslarning odatdagi xulq-atvorlarini o'zgartirmaydi. Kuzatishni bitta odam ustida ham va bir guruh shaxslar ustida ham olib borish mumkin. Bu metod bolalar bog'chasi guruhlaridagi yoki maktab sinfidagi bolalarni o'rganish uchun qulaydir. Kuzatish metodining kamchiligi uning anchagina mehnat talab qilishidir. Tadqiqotchi psixologni xulq-atvorning istalgan qiyofada emas, balki aniq tadqiqot vazifalari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishigina qiziqtiradi. Shuning uchun kuzatiluvchi shaxs xususiyatlari va psixik holatlarining o'ziga kerakli tarzda namoyon bo'lishini kutib turishi kerak. Bundan tashqari, psixik xususiyatlarning yakka holda namoyon bo'lishini kuzatish va qayd qilish etarli emas. Tadqiqotchi u yoki bu xususiyatlarning xarakterligiga, tipikligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bundan tashqari eksperimental psixologiyada quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o'z hoxishi bilan qandaydir psixik jarayon yoki xususiyatni yuzaga keltirib psixik hodisaning tashqi sharoitga bog'liqligini tekshirib ko'rishi mumkin. Eksperiment metodining ana shu afzalligi uning psixologiyada keng qo'llanilishi bilan tushuntiriladi. Empirik, ya'ni tajriba yo'li bilan qo'lga kiritilgan faktlarning asosiy ko'pchiligi psixologiyada eksperimental yo'l bilan olingandir. Biroq har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni qo'llab bo'lmaydi. Masalan, agarda psixik jarayonlar va funksiyalar ko'proq eksperiment yo'li bilan o'rganilsa, shaxsning birmuncha sodda xususiyatlari (temperament, qobiliyatlar) ham shu metodda o'rganiladi. Lekin xarakterning va qobiliyatlarning murakkab turlarini hali eksperiment metodi bilan o'rganib bo'lmaydi.

Suhbat metodi. Bu metod tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladi: masalan, dastlabki tanishish bosqichida ham boshqa metodlar, ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo'lga kiritilgan xulosalarni aniqlashda qo'llaniladi. Suhbat metodidan mohirlik bilan foydalanish juda qimmatli natijalarga erishishga yordam berishi mumkin.

Intervyu metodi. Psixologiya fanidagi bu metod sotsiologiyada keng qo'llaniladigan anketa metodidan farq qiladi. Xuddi suhbat metodi kabi intervyu metodi ham so'roq-javob metodiga tegishlidir. Ko'pincha intervyu uchun savollarni sotsiologik anketalar tipiga o'xshatib, ya'ni ko'p masalalar yuzasidan ko'plab javoblar olishni ko'zlab tuziladi. Intervyu metodiga bunday tarzda yondashish tadqiqotning faqat birinchi bosqichiga, muammo bilan dastlabki tanishish bosqichiga to'g'ri keladi. Biroq bilimlarni va o'rganilayotgan psixik xususiyatlarni strukturasini hisobga olib tuzilgan savollar o'rganilayotgan xususiyatlar strukturalari hamda darajalarini bundan keyin aniqlash uchun juda qimmatli natijalar berishi mumkin.

Ekspert baholash metodi. Bu metod shaxs psixologiyasida keng qo'llaniladi. Ekspertlar sifatida tekshirilayotgan kishilarni yaxshi biladigan shaxslar – bolalar bog'chasi va maktab-internatlarning tarbiyachilarini, sinf rahbarlari, ishlab chiqarish, texnika bilim yurtlarining masterlari, ishlab chiqarishdagi masterlar, ilmiy jamoa rahbarlari, harbiy komandirlar, administratorlar, sport trenerlari qatnashishlari mumkin. Ekspert baholarni ko'proq xususiyatlarning sifat jihatidan namoyon bo'lishlarini tasvirlash emas (buni ekspertlar bilan qilinadigan keyingi suhbatlarda o'tkazilsa ancha foydaliroq bo'ladi), balki o'rganilayotgan xususiyatlarning ifodalanishini miqdoriy baholash tarzida, ya'ni u yoki bu xususiyat yoki xulq-atvor elementlari darajalarini baholash tarzida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspertlar umumlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan xulq-atvor elementlarining ancha-muncha mayda qismlari ifodalanganligini qayd qilishi lozim. Umumlashtirish – ekspertning emas, balki tadqiqotchining ishidir.

O'z-o'zini kuzatish metodi. XVIII-XIX asrlar empirik psixologiyasi tomonidan kamsitilgan bu metod so'nggi yillarda yana ma'lum ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunonchi, suhbat va so'roq-javob metodlarini o'z-o'zini kuzatish metodi orqali olingan ma'lumotlarsiz qo'llab bo'lmaydi. Buni suhbat va shaxsiy savol-javob o'tkazish uchun savollar tuzishda hisobga olish zarur. Lekin o'z-o'zini kuzatish, garchi psixologik tadqiqotlarning asosiy metodi bo'lmasa-da, mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. O'z-o'zini kuzatish metodi psixik holatlarni, ya'ni tetik kayfiyatni, achchiqlanishni, ishchanlikni, kasb bilan bog'liq bo'lgan sermahsul ishlarni o'rganishda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Testlar metodi. Testlar, ya'ni ozmi yoki ko'pmi standartlashtirilgan (bixillashtirilgan) shaxs xususiyatlarini qisqa muddatli sinash metodlari yaxshi yoki yomon asoslangan bo'lishi mumkin. Yaxshi asoslangan test – bu oldindan o'tkazilgan katta eksperimentlar natijasidir.

Nazariy jihatdan asoslangan va eksperimental jihatdan muhokama qilingan testlar tadqiqotchi uchun ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan

o'rni.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida kishilar ongida gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilgani uchun ham uning ushbu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va yetakchidir.

Psixologiya va falsafa. Eng avvalo fanni falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqasi xususida. Bu aloqa ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlanib tendentsiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

Psixologiya va tarix. Psixologiya va tarix fanlarining uzviy bog'liqligi ayniqsa, mustaqillik yillarida tarixni xolisona o'rganish va shu bilan birga inson shaxsining madaniy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq tarzda rivojlanishi ayniyatini xalq ommasi ongiga etkazishda namoyon bo'lmoqda. Zero, inson ruhiyati va u vakil bo'lgan millat va elat psixologiyasi orqali tarixiy voqealarga baho berish milliy istiqloq g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishning muhim vositalaridan biridir.

Psixologiya va sotsiologiya. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, o'z navbatida psixologiya ham ushbu fan erishgan yutuqlardan foydalanadi va ularning ko'lamini kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi.

Psixologiya va pedagogika. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy hamda azaliy xarakter kasb etib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida, xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Psixologiya va tabiiy fanlar. Biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va boshqa fanlar psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy-fiziologik

mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi.

Psixologiya va kibernetika. Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi.

Psixologiya va texnika fanlari. Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda psixologiyaning bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi singari tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

Zamonaviy psixologiya fanining asosiy sohalari.

Inson o'zining kimligini anglashga intilishdan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishdan, tabiat va jamiyat xrdisalarini tushunishga extiyoj sezishdan, o'tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran psixologiya fan sifatida rivojlana boshladi. Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsada, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishiga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosi edi. Psixologik holatlarni tadqiq qilish, ya'ni psixika mohiyatini tushunish maqsadida o'sha davrda eksperimental ilmiy-psixologik laboratoriyalar vujudga kela boshladi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib psixologiya fani to'g'risidagi ilmiy tushunchalarda keskin o'zgarishlar yuzaga keldi va ularning ta'siri natijasida psixologiyaning tadqiqot obyekti sifatida insonga muhitning ta'siri, uning xulq-atvorini o'rganish muammolari tanlab olindi. Shu davrda psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shgan bir qator konsepsiyalar, nazariyalar, oqimlar va yo'nalishlar vujudga keldi.

Bixeviorizm - AQShda E.Torndayk, D.Uotson kabi olimlar dastlab hayvonlarda keyinroq odamlar xulqini o'rganish asosida xulq-atvor psixologiyasini yaratdilar. Bixeviorizmning formulasi SR (Stimul Reaksiya) tasirga javob berishdan iboratdir. Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K.Xoll va V.Skinnerlar nomi bilan bog'liq. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan K.Miller, D.Dollard, J.Tibo, G.Kelli va boshqalar diada – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar.

Klassik bixeviorizmdan farqli o'laroq ijtimoiy-psixologik bixevioristlar hayvonlar o'rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm

tarzda ilgari hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

Neobixeviorizm - tajriba yo'li bilan ta'sirni o'rganish, oraliq uzilishlar bo'lishi haqida, buning asosida geshtalt, ya'ni tasvir haqidagi ta'limotdir. Uning asoschilari E.Tolmen hisoblanadi, xuddi shu ta'limot asosida avstriyalik vrach psixiatr Z.Freyd psixoanaliz ta'limotini yaratdi. Tushunish psixologiyasi - bu oldindan his etish ya'ni intuitsiyaga asoslangan qarash bo'lib, uning asoschisi V.Dilten (1833-1911) hisoblanadi. U tabiiy ilmiy va diniy ilmiy degan ikki yo'nalishdagi fanlar tizimini taklif qildi.

Freydizmning jahon ilmi va malakiyoti uchun ta'siri shu qadar katta bo'ldi-ki, jamoadagi yoki guruhliy ongsizlik g'oyasini ilgarni surgan K. Yung hamda individual psixologiyani targ'ib etgan, A.Adler va ularning izdoshlari bu kontseptsyani yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu nazariya va kontseptsiya hanuzgacha shaxs psixologiyasini, psixoanaliz esa psixoterapiyani o'rganishda asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

Neofreydizm - avstriyalik A.Alfred (1870-1937) shveytsariyalik Yung Karl Gustav analitik psixologiyani, amerikalik Xorney (1885-1952) psixoanaliz ta'limoti asosida o'z nazariyalarini yaratdilar, unga muvofiq odam tashqi ta'sirga javoban o'z strategiyasini ishlab chiqadi, ya'ni odamlarga intilish yoki odamlardan qochish, unga qarshi chiqish yoki yonbosish ishtiyoqida bo'ladi. Har doim nevrotik, konflikt holatidan chiqish yo'llarini qidiradi.

Tafakkur nazariyasini S.L.Rubinshteyn (1889-1960) yaratib, muammoga faoliyatli yondashuvni taklif qildi.

Psixologiyada shakllanib bo'lgan uch asosiy oqim - psixoanaliz, bixeviorizm va geshtaltpsixologiya ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlar doirasida o'rganish tendentsiyasi paydo bo'ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlar va ularda turlicha eksperimentlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi.

Geshtaltpsixologiya yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarning – interaksionizm va kognitivizmning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Psixoanaliz doirasida esa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar E.Fromm va J.Salliven ishlari bilan bog'liq bixevioristlardan farqli o'laroq bu erda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirokida o'tkazila boshladi. Ularning izdoshlari V.Bayon, V.Bennis, G.Sheparde, V.Shutklarning o'tkazgan tadqiqotlari tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan **kichik "T" guruhlar** psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta'siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta'siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkazishga asos solindi.

Kognitivizm - K.Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish obekti munosabatlar tizimidagi kishilar,

ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognetiv holatlar bo'ldi. Kognitizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o'xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, F.Xayderning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T.Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Festingerning kognetiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g'oya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad – turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo'l-yo'riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham tanikliq ijtimoiy psixologlar G.Olport, A.Maslou, K.Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Yuqorida ta'kidlangan strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm, freydizm oqimlari jahon psixologiya ilmining shakllanishiga asos bo'lgan bo'lsa, ular ta'sirida shakllangan boshqa o'nlab: assotsiativ psixologiya, geshtaltpsixologiya, gumanistik psixologiya, ekzistensial psixologiya, kognitivizm, ramziy interaksionizm kabi yo'nalishlar uning qator masalalarini hal qilishga o'z hissasini qo'sha oldi.

Hozirgi zamon psixologiya fanining asosiy

yo'nalishlari:

Bixeviorizm	(ing. behavior - xulq). O'rganish predmeti sifatida faqat xulq tan olinadi. Xulq bilan muhit o'rtasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini tekshirish tavsiya etiladi. Psixologyaning predmeti psixikami emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rgannshdan iboratdir degan fikrpi ilgapi suradigai oqim. Bixeviorizm xulq deganda, orgnizmning faqat tashki muhitdaga qo'zg'atuvchilarga nisbatan qaytaradigan	Asosc hisilari D.Uotson (1878-1958) E.Torndayk (1874-1949)
Neobixeviorizm	XX asrning 30 yillarida bixeviorizmni o'rniga kelgan yo'nalish bo'lib, xulqni boshqarishda psixik holatning aktiv roli tan olinadi.	E.Tolmen (1886-1959) K. Xall (1884-1952)
Geshtalt-psixologiya	(nem. cestalt - tasvir, yaxlit shakl, tarkib, tuzilish). XX asrda Germaniyada vujudga kelgan yo'nalish. Psixik	M.Vertgeymer (1880-

		protssslarni, qonuniyatlarni hosil bo'lish va kechilishini bir butunlikda, yaxlit tuzilishi va dinamikligi (serharakatligi) tamoyiliga asoslanuvchi xususiyatlar azaldan psixikaga hosdir. Ular psixika taraqqiyotning asosini tashkil etadi degan fikrni ilgari suruvchi oqimlardan biridir.	1943) V.Keller (1887-1967) K.Levin (1890-1947)
	Gumanisti psixologiya	XX asrning birinchi yarmida AQShda vujudga kelgan. Inson oliy mavjudot, oldiga o'zini mukammallashga intilish uchun maqsad qo'yadi deb qaraydilar.	G.Ollort (1897-1967) A. Maslou (1908 - 1970) K.Rodjers (1902-1987)
	Freydizm	Psixoanaliz ta'limotidan tashqari inson to'g'risidagi yo'nalish.	Z.Freyd (1856 - 1939)

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Psixologiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Psixologiya predmeti nima ?
3. Psixika deganda nimani tushunasiz?
4. Ilmiy psixologiya nimani anglatadi?
5. Psixologiyani o'rganadigan obyektni tushuntirib bering.
6. Psixik hodisalar haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
7. Psixik holatlarga nimalarni kiritish mumkin?
8. Psixik jarayonlar nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Psixik xususiyatlar tushunchasini ta'riflab bering.
10. Psixologiya tarixi haqida qanday tushunchaga egasiz?
11. Vilgelm Vundtning psixologiya faniga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot bering.
12. Psixologiyani tarmoqlari haqida nimalarni bilasiz? Ularga ta'rif bering.

**2-MAVZU: SHAXSNING PSIXIK BILISH
JARAYONLARI:DIQQAT,SEZGI,IDROK, XOTIRA, TAFAKKUR
REJA :**

- 1.Diqqat turlari va xususiyatlari
- 2.Sezgi turlari , ularning inson hayotidagi o`rni va o`ziga xos xususiyatlari
- 3.Idrokning umumiy ta`rifi va uning fiziologik asoslari
- 4.Xotira turlari va uning qonuniyatlari
- 5.Tafakkur haqida umumiy tushuncha.

Asosiy tayanch tushunchalar

*Diqqat, parishonxotirlik, taktil sezgi, senisteziya, sensibilizatsiya, adaptatsiya,sezgi ,idrok,konstantalik,appertsepsiya, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish
gallyutsinatsiya,
illyuziya,xotira,eyditizm,amneziya,paraamneziya,hayol,tasavvur, tafakkur, analiz, sintez*

Mashg`ulotni o`tkazish joyi: auditoriya

Mashg`ulotning jihozlanishi: tarqatma materiallar, texnik vositalar

Mashg`ulotning davomiyligi: 2 soat

**Mashg`ulotning maqsadi:** Talabalarda psixik bilish jarayonlarining: xotira, diqqat, sezgi, idrok, tafakkur, nutk, xayol to`g`risidagi umumiy tushunchalarga ega bo`lishi, bu jarayonlarning zanjir shaklida bosqichma-bosqich namoyon bo`lishi g`aqida tasavvurlarini va amaliy ko`nikmalarni shakllantirish.

Kutilayotgan natija: Talabalar psixik bilish jarayonlari inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta`minlovchi muhim shartlardan biri ekanligi, idrok va uning xususiyatlari, xotiraning qonuniyatlarining talabalarning o`z hayot yo`lidagi o`rnini tushunib etishlari uchun ko`nikmaga ega bo`lishlari zarur.

Mashg`ulot mazmuni:

Nazariy qism:

Diqqat turlari va xususiyatlari

Diqqat - shaxsning faolligini hamda uning obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarga tanlovchi munosabatini belgilaydi. Diqqatda odam psixikasining moslashtiruvchi vazifasi namoyon bo`ladi. Agar diqqat bo`lmasa, odamda aniq maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ham bo`lmaydi.

Diqqat muayyan sharoitlarda va vaziyatlarda mo`ljall olish imkonini beradi. Bunday sharoitlarni hisobga olish odam amalga oshirayotgan faoliyatning ongli ravishda kechishini va uning sermahsul bo`lishini ta`minlaydi. Har qanday masalaning va har qanday hayotiy vazifaning hal kilinishi odamdan o`z diqqatini ana shu masalaning mazmuniga hamda uni bajarish uchun qilinadigan harakat usullariga qaratishni talab qiladi.

Demak, diqqat qolgan barcha psixik jarayonlardan sezilarli darajada farq qiladi. Uning o`ziga xosligi shundan iboratki, u aks ettirish formasi singari

psixik faoliyatning mustaqil turi emas, balki boshka psixik jarayonlarning uyushgan faolligidir.

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan uzoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Inson ziyrakligi, farosatligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. ***Diqqat barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsulдорligini oshirishga ta'sir etadi.*** Shu boisdan diqqat qaratilgan obyektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat - aqliy jarayonlarning sifati, mahsulдорligi va samaradorligini ta'minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Psixologiyada diqqatning obyektiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- ***tashqi diqqat;***
- ***ichki diqqat.***

Shu bilan birga faoliyat shakliga ko'ra:

- ***individual;***
- ***guruhiy, jamoaviy*** turlariga bo'linadi.

Hosil bo'lish xususiyati va amal qilish usuliga qarab:

- ***ixtiyorsiz*** (sust) - uning paydo bulishida odamning maqsadi qatnashmaydi;
- ***ixtiyoriy*** (faol) - odamning mahsadiga ko'ra, o'zi iroda kuchini ishlatishi tufayli paydo buladi.
- ***ixtiyoriydan so'nggi*** turlariga bo'linadi.

Tashqi diqqat deb ongimizning obyektiv vokelikdagi narsa va hodisalarga, ularning ayrim belgi va xususiyatlariga yunaltirilishi, ularda faol to'planishiga aytiladi. Tashqi diqqat faqat idrok qilish jarayonidagina namoyon bo'lmasdan, balki fikr yuritilayotgan narsalarga ham qaratiladi. Jumladan, ixtirochining o'zi yaratgan narsasini tasavvur qilishi, rassomning obrazlarni kashf qilish jarayoni, muhandisning to'g'on qurilishini ko'z o'ngiga keltirish bilan bog'liq holatlar bunga misol bo'la oladi.

Ichki diqqat esa ongimizning o'z subyektiv taassurotlarimiz, his-tuygularimiz va intilishlarimizga qaratilishidan iboratdir. Inson ongining o'zida sodir bo'layotgan o'z hissiyotlarini, fikrlarini, orzu, istak va shu kabilarni kuzatishda tashqi diqqatdan farqli o'laroq ichki diqqat yuzaga


kelar ekan, bunda diqqatning har ikkala ko'rinishi ham faoliyatning muvaffaqiyatli yakunlanishiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga egadir.

Bir kishi ongining muayyan obyektga qarata yo'naltirilishi va unga to'planishiga **individual**; bir guruh yoki ko'pchilikdan iborat kishilar jamoasining ongi psixik faoliyatning biror obyektga qarata yo'naltirilishi va shu obyekt ustida to'planishiga **guruhiy** yoki **jamoa diqqati** deb yuritiladi.

Ixtiyorsiz diqqat diqqatning quyi formasi bo'lib, odatda qo'zg'atuvchilarning analizatorlardan birortasiga ta'sir etishi natijasida sodir bo'ladi. U mo'ljal olish refleksi qonuniyatiga ko'ra paydo bo'ladi va odamlar hamda hayvonlar uchun umumiydir. Ixtiyorsiz diqqat ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi hamda bu qo'zg'atuvchilarning odamni ilgarigi tajribasi yoki psixik holatiga muvofiq kelishi tufayli paydo bo'lishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanuvchi, faqat odamga xos bo'lgan ixtiyoriy diqqat ancha murakkabdir. Uning xarakterli xususiyati shundaki, u obyektga niyat va qo'yilgan maqsad ta'sirida yo'llanadi. Kishida paydo bo'ladigan talab, ehtiyojlar, organizmdagi o'zgarishlar, masalan chanqash, og'piq, ko'ngil g'ashligi kabi holatlar ham diqqatimizni jalb etishi mumkin. Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini orientirovka (mo'ljal) yoki tekshirish refleksi tashkil qiladi. Chunonchi, tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o'zgarishi bizda darhol mo'ljal refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, «nima gap» degan ma'noda atrofimizga razm sola boshlaymiz. Shuningdek, turli his-tuyg'ular, xususan qiziqish ixtiyorsiz diqqatga sabab bo'ladi. Qiziqarli roman, kinofilm, qiziqarli suhbat diqqatimizni o'ziga beixtiyor tortadi. Shuning uchun diqqatning bu xili **emotsional diqqat** ham deyiladi.

Ixtiyoriy diqqat qat'iy maqsad asosida yo'naltirilgan diqqatdir. Diqqatning bu turi o'zini majbur qilib, zo'r berib ongni bir faoliyat ustida to'plab turishlikni bildiradi. Ixtiyoriy diqqatning psixologik xususiyati uni ko'p va kam irodaviy zo'r berish, jiddiylilik (tanglik) bilan birga bo'lishidadir, bunda ixtiyoriy diqqatning uzoq saqlanishi toliqishiga, ko'pincha jismoniy zo'r berishdagidan ko'ra ko'proq toliqishga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'qitish davrida ixtiyoriy diqqatning kuchli to'planganligi ortiqcha davomli bo'lmasligi lozim.


Psixologiyada diqqatning ixtiyoriy turi, ko'pincha irodaviy deb nomlanadi. Bu, albatta, bejiz emas, chunki diqqatning muayyan obyektga yo'naltirilishi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Hatto ixtiyorsiz diqqat faoliyatida qatnashsa, u ham irodaning zo'ri bilan yo'naltirilgan obyektga to'planib turadi.



Ixtiyoriydan so'nggi diqqat - diqqatning muayyan obyektga avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan (avtomatlashgan) diqqat turi bo'lib, ushbu tushuncha psixologiya faniga psixolog olim N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat biror obyektga uzoq muddat qaratilishi bilan belgilanib, bunda hech qanday sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflanmasa ham bo'ladi. Insonning yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faoliyatini hamda barcha turdagi mehnatning yuqori, samarali ko'rsatkichi diqqatning shu turi bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqatning obyektga to'planishi, mustahkamlanishi odamning qiziqishlariga bog'liqdir. Hatto ixtiyorsiz diqqatning faoliyatda mujassamlashishida kishining ishtiyoqi va qiziqishi katta ahamiyatga egadir. Odatda faoliyatga qiziqish bevosita va bilvosita shaklda namoyon bo'ladi. Bevosita qiziqish faoliyat jarayoniga, xatti-harakatlarning o'ziga, ish uslublariga qaratilgan qiziqishdan iboratdir. Bilvosita qiziqish esa, faoliyatning maqsadga, uning natijasiga yo'naltirilgan qiziqishdir.

Diqqat murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bor. Ulardan asosiylari quyidagilar:



Diqqatning ana shu xususiyatlari ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Diqqatning barqarorligi uning davomiyligi va u yuz bergan butun vaqt mobaynida qaratilganlik darajasi bilan belgilanadi. Diqqatning barqarorligi diqqat qaratiladigan obyektlarning xususiyatlariga va diqqati yo'naltirilgan shaxsning faolligiga bog'liq bo'lib, u diqqatning o'z obyektiga kuchli yo'naltirilishi va faol to'planishidan iborat ijobiy xususiyatdir.

Diqqatning ko'lami, xajmi uning taqsimlanish xususiyati bilan belgilanib, ayni bir vaqtning o'zida aniq-ravshan idrok etiladigan obyektlar soni bilan tavsiflanadi. Diqqatning obyektlari o'rtasida kanchalik yaqin bog'lanishlar mavjud bo'lsa, uning xajmi shunchalik keng bo'ladi va aksincha.

Diqqatning taqsimlanishi - ikki va undan ortiq faoliyat turlarining ayni bir vaqtning o'zida muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati bilan bog'lik xususiyatidir. Diqqatning taqsimlanishi murakkab faoliyat jarayonini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Diqqatning ko'chishi subyektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga, bir obyektidan ikkinchi obyektga, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab o'tishida namoyon bo'lib, bunda ko'chish to'liq yoki chala bo'lishi mumkin.

Diqqatning bo'linishi uning ko'chishidan farqli o'larok ixtiyorsiz tarzda bo'ladi. Diqqatning bo'linishi shaxsning asosiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ahamiyatsiz bo'lgan obyektga ko'chishida namoyon bo'ladi.

Diqqatni obyektga qarata olmaslik va yunaltira olmaslik bilan bog'liq salbiy xususiyatlar, ya'ni diqqatning buzilishi ham uchrab turadi. Ulardan biri parishonxotirlikdir.

Parishonxotirlik - diqqatni ma'lum bir obyektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat. Parishonxotirlik vaqtincha holat bo'lishi ham, shaxsning nisbatan barqaror hislati bo'lishi ham mumkin. Parishonxotirlikning ikki turi mavjud bo'lib, biri diqqatni umuman hech narsaga qarata olmaslik bo'lsa, ikkinchisi diqqatni muayyan obyekt ustiga kuchli tuplantirib, boshqa narsalarga qaratilmasligidir.

Sezgi turlari , ularning inson hayotidagi o`rni va o`ziga xos xususiyatlari

Inson organizmiga ta'sir etadigan ayrim narsa va hodisalar obrazlarining miyada bevosita aks etish faoliyatiga **sezgilar** deyiladi. Biz sezgilar yordamida predmetlarning rangini, shaklini, katta yoki kichikligini aniqlaymiz.

Sezgilar sodda psixik jarayon bulishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbai hisoblanadi. Chunki narsa va hodisalar aks etishining ko'pchilik qismi sezishdan boshlanadi. Agar sezgilarimiz bo'lmaganda biz tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni aks ettirishdan va ularni bilishdan maxrum bo'lar edik.

Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir etishining mahsulidir. Sezgilar moddiy (obyektiv)

borliqning, voqelikning xaqqoniy tasvirini aks ettirib, ular qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa, ular xuddi shundayligicha hech o'zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Tevarak-atrofdagi olamning boyligi haqida, tovushlar va ranglar, xidlar va xarorat, miqdor va ko'plab boshqa narsalar to'g'risida biz sezgi tufayli bilamiz. Kishi vujudi sezgi a'zolari yordamida sezgilar shaklida tashqi va ichki muhitning xolati haqida rang-barang axborot olib turadi.

Sifat - sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi chegarasini o'zgartiradi. Masalan, eshitish sezgilari tovushning balandligi tembri, qattiqligi bilan tafovutlanadi, ko'rish sezgilari esa ranglarning quyugligi, jilosi, tovlanishi, toni va boshqa shu kabilar bilan farqlanadi. Sezgilarning sifat jihatidan ko'p turliligi materiya harakati shakllarining turli-tumanliligini aks ettirishidir.

Sezgilarning **jadalligi** ularning miqdoriy tavsifidan iborat bo'lib, ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funktsional xolati bilan belgilanadi.

Sezgilarning **davomiyligi** ularning vaqtinchalik tavsiflanishidan iborat bo'lib, u ham sezgi a'zolarining funktsional xolati bilan, shuningdek, qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti hamda jadalligi bilan o'lchanadi. Qo'zg'atuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilan darhol sezgi hosil bo'lmaydi, balki u bir qancha daqiqadan keyin vujudga keladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar mavjud:

- eksterioretseptiv;
- proprioretseptiv;
- interioretseptiv. Ular o'z navbatida quyidagi **sezgi turlariga** bo'linadi.

Ko'rish sezgilari. Inson tomonidan rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilari tarkibiga kirib, uning organi - ko'z hisoblanib, u ko'z soqqasi va undan chiqib keladigan ko'ruv nervlaridan tashkil topgan.

Insonning hayoti va faoliyatida kurish sezgilarining roli benihoya katta. Ko'rish hodisasini vujudga keltiruvchi fizik sabab har xil uzunlikda bo'lgan elektromagnit tulqinlaridir. Odamning ko'zi 390 millimikrondan 800 millimikrongacha uzun elektromagnit tulqinlari taassurotini seza oladi. Ko'z murakkab tuzilgan sezgi a'zosi bo'lib, u ko'z kosasida joylashgan va maxsus ko'z mushaklari yordami bilan har tomonga burila oladi. Ko'zimizga ko'rinadigan har bir narsaning o'ziga xos rangi bor. Faqat juda tiniq narsalarning rangi yo'q, shuning uchun ham ular ko'zga ko'rinmaydi.

Eshitish sezgilari tovushlarni eshitishdan iborat bo'lib, musiqaviy va shovqinli tovushlarni aks ettiradi. Odatda tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi bir tondan ikkinchisi esa bir necha

tonlardan tashkil topadi. Insonlar uchun eshitish sezgilari katta ahamiyatga ega, chunki nutqni o'zlashtirish tovushlarni yaxshi eshitish va ularni ajratishga bog'liq. Ona tilimizda ishlatiladigan tovushlarni kichik yoshdan eshitib, ularga odatlanib qolamiz, shuning uchun ularni bir-biridan ajrata bilamiz va tug'ri talaffuz qilamiz. Ammo chet tilidagi tovushlarni tez ajrata olmaymiz, ularni talaffuz etishda qiynalamiz, chunki ularga qulog'imiz o'rganmagan.

Hid bilish sezgilari har qanday narsalarning hidini ongimizda aks ettirish demakdir. Odam to'rt yuz mingga yaqin turli hidni seza oladi. Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi.

Ta'm bilish (maza) sezgilari - shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ular muayyan turkumga kiritilgan va kiritilmagan xilma-xil turlarga ega bo'lib, narsalarning, moddalarning nomlari bilan yuritiladi: nonning mazasi, qovunning mazasi kabilar. Maza va hid sezgilari bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Qattiq tumov vaqtida ovqatning hidi sezilmagani uchun uning mazasi ham yo'qday ko'rinadi.

Teri sezgilari tarkibi tuyish va xarorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili - bu retseptorlarning teri va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidir.

Tekkanni sezish yoki **taktil sezgilar**, terimizga tegib turgan narsani uning silliqqligini yoki g'adur-budurligini his etishdir. **Harorat sezgisi** issiq-sovuqni his etish demakdir. Harorat sezgisi harorati har xil darajali buyumlarning terimizga bevosita urilib turishidan paydo bo'ladi. Terimizga tegib turgan buyumning harorati, terimizga nisbatan pastroq bo'lsa - sovuqni, balandroq bo'lsa - issiqni sezamiz. **Og'riq sezgilari** ichki va tashqi a'zolarimizda bironta o'zgarishga bog'liq bo'lgan xavfli xolatlarni ongimizda aks ettirish demakdir.

Adaptatsiya - (lot. «adapto» - moslanmok) analizator sezgirligining unga uzoq ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi ta'sirida yoki ular ta'sirining yo'qligida o'zgarishi muhim ahamiyatga egadir. Adaptatsiya (moslashish) tufayli analizatorlar tashqi muhitning o'ta o'zgaruvchi sharoitlariga moslashishi mumkin.

Ko'rish yoki eshitish sezgisining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi. Sezgi a'zolari sezuvchanligining kuchayish hodisasi ba'zi maxsus kasblar bilan uzoq vaqtdan bilan shug'ullanadigan shaxslarda kuzatiladi. Bularning xammasi sezgilarimiz hayot sharoitlari va amaliy mehnat faoliyati talablari ta'siri ostida rivojlanishining dalilidir.

Idrokning umumiy ta'rif va uning fiziologik asoslari

Idrok - sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'lad va aks ettirishda ishtirok qiladi.

Idrok tushunchasining (lotin tilidan - «perceptio» qabul qilish) yuqori bosqichi esa **appertsentsiya** deyiladi. **Appertseptsiya** - idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appertseptsiya hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tavofutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zini ilm saviyasi, maslagi, pozitsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, «ildiz» tushunchasini biologlar o'simliklarning moddiy asosi sifatida, matematiklar sonlarning ildiz ostidagi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtai nazardan qarindosh-urug'chilik shaklida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida idrok muayyan shakllarga ajratilib tadqiq qilinadi, vaqt, harakat, fazo yordami bilan atrof-muhitning, biosferaning, ijtimoiy turmushning mohiyati yuzasidan axborotlar ma'lumotlar, xususiyatlarni aks ettiradi.

Odatda inson tomonidan vaqtni idrok qilish, asosan ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarning o'zaro o'rin almashinuvi tufayli namoyon bo'ladi va o'ziga xos tuzilishi bilan mazkur jarayonning boshqa shakllaridan farq qilib turadi. Vaqtni idrok qilish inson tomonidan aks ettirilayotgan vaqt birligining obektiv (haqqoniy, holis) mazmuniga, shaxsning unga nisbatan munosabatiga boliq bo'lib, xuddi shu mezon orqali uning mahsuldorligi o'lchanadi.

Yaqqol voqealikdagi narsa va hodisalarning tana a'zolarini qabul qilish analizatorlariga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasiga **gallyutsinatsiya** deyiladi. Gallyutsinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati bo'lib, ba'zan qo'rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobig'idagi qo'zg'alish jarayonlarining nuqsonli, sust (patologik) harakati natijasida, goho asab tizimining zaharlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelish mumkin. Gallyutsinatsiya hodisasi bir necha xil ko'rinishga ega bo'lish mumkin ularning eng asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi;
- u yoki bu ovozlari, tovushlar, kuylar eshitilishi;
- yo'q sharpalar, hidlar sezilishi kabilar.

Illuziya hissiy a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning noto'g'ri - **noadekvat**, yanglish, xato idrok qilishdan iborat jarayonining noyob hodisasidir. Ba'zan psixologik fanida noto'g'ri idrok qilishga olib keluvchi qo'zg'atuvchilar konfiguratsiyasining (lotincha «contiguration» - tashqi tuzilishida o'xshashlik, o'zaro o'xshashlik, joylashuvda yondashuvlik) o'zi ham **illuziya** deb ataladi. Idrok jarayoni inson oldida turgan maqsadga, maqsad qo'ya olishga, unga berilgan ustanovkaga uzviy bog'liq holda irodaviy boshqarilish xususiyatiga egadir.

Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni **figura va fonda** idrok qiladi.

Figura - shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. **Fon** esa aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa bo'lib, aniq obyektни ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan xolatda o'z ismimizni birov aytib chaqirsa, darrov o'sha tarafga qaraymiz. Ism - figura bo'lsa, bozordagi shovqin - fon rolini o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Masalan, gul bozorida aynan qip-qizil atirgul sizga yoqib qolib, o'shani xarid qilasiz, qolgan gullar fonday ongingiz aktiviga o'tmaydi.

Idrok - borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan obyektни xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta'minlaydi. Ya'ni, idrok asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, hidini, mazasini, rangini sezamiz, ya'ni alohida - alohida xossalar ongimizda aks etadi. Bu - sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutloqo qarshilar. Chunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu obyektga shaxsiy munosabati va idrokdagi faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buning isboti uchun ko'pincha Rubin figurasi tavsiya etiladi. Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab -vaza desa, boshqalar uni bir - biriga qarab turgan ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. Shunisi xarakterliki, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini tushunishga harakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmay turadi. Fon xususiyatlari sababli paydo bo'luvchi ko'rish illuziyalarning paydo bo'lishiga xos ayrim «sirlar» haqida to'xtaladigan bo'lsak, to'q rang fonda shakllarning rangi asliga nisbatan biroz ochroq va aksincha, bo'lib tuyuladi (oppoq ko'ylakdagi siyoh dog'ini tasavvur qiling). Fon va undagi shaklni idrok etayotganda, odam eng avval hajman kichikrog'ini ko'radi. Masalan, katta oppoq devorga osilgan portretni ko'z oldingizga keltiring.

Quyidagi bir nechta rasmlarda ko'rish ilyuziyalariga misollar keltirilgan.

1-rasm. Agar diqqat bilan rasmning qora rangli shakliga qarasak, chunki eng avval ana shu shakl ko'zga tashlanadi, zero u oq fonga nisbatan hajman kichikroq, unda saksofon musiqiy asbobini chalayotgan kishining tasvirini ko'ramiz.



1-rasm.



2-rasm.

Agar diqqatimizni shaklga nisbatan hajman kattaroq bo'lgan oq fonga qaratsak, rasmda bizga qarab turgan ayol yuzini ko'rishimiz mumkin.

2-rasm. Ushbu rasmda ham avvalgi rasmda bo'lgani kabi ikki kishi tasvirlangan. Biri – yosh qiz. Uni biz rasmning oq foniga e'tibor berib ko'rishimiz mumkin. Ikkinchisi – keksa ayol. Uni esa qora shakllarga qarab payqay olamiz.



3-rasm.



4-rasm.

3-rasm. Ushbu rasmda psixologiyada juda mashhur bo'lgan tasvirlardan biri ifodalangan. Uning siri oddiy. Agar diqqatimiz markazidagi oq rangli shaklga qaratilsa, kimdir ajoyib guldonni, yana ba'zilar oddiy ko'zani ko'rishi mumkin. Bordi-yu, diqqatimiz qora fonga qaratilsa, u erda biz bir-biriga tikilib turgan ikki kishining yuzini ko'ramiz.

4-rasm. Diqqat bilan rasmning qora rangli shakllariga qaratsak, biz chap tomonga nigoh tashlagan xindyning tasvirini ko'ramiz. Rasmdagi qora

rangli shaklar oq fonga hajman kichikroq bo'lgani sababli biz eng avvalo, aynan xindu tasvirini ko'rib turibmiz.

Agar diqqatimizni shaklga nisbatan hajman kattaroq bo'lgan oq fonga qaratsak (bu biroz qiyin bo'lishi tabiiy), rasmda bizga orqasi bilan o'girilib turgan shimol xalqlaridan biri (deylik eskimoslar)ning vakili yoki shunchaki qishning sovug'ida qalin kiyingan kishining tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Shu kabi ko'rish illuziyalariga misol bo'la oladigan rasmlarni hayotimizda juda ko'p uchratishimiz mumkin. Ularni ko'rganingizda rasmlarga qarab, biroz mulohaza yuritib ko'ringchi. Fon xususiyatlari sababli hosil bo'ladigan illuziyalar nafaqat fon va undagi shakl hajmiga, balki har ikkisining fazodagi joylashuviga ham bog'liq bo'ladi.

Xotira haqida tushuncha. Xotira turlari va ularning qonuniyatlari

Xotira - atrof-muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv xolda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat psixik jarayon alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunon. «mnema» - xotira) faoliyat, psixikaning «tanasi» sifatida namoyon bo'ladi.

Xotira shaxs psixik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xotiraning bosh roli o'tmishda yuz bergan narsa va hodisalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ham hozirgi, ham kelgusida amalga oshirish rejalashtirilgan voqelikning ruyobga chiqishini ta'minlaydi.

Inson ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma'lum bo'lishicha, bir vaqtning o'zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo'lgan ma'lumotning qolishi qiyin ekan. Bu ettita so'z, son, belgi, narsaning shakli bo'lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo'lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo'lardi. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumotlarni saralab, terib ishlatish yana bir psixik jarayonni - xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi.


Inson xotirasining mukammal bo'lishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog'liq:

- esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;
- shaxsning o'zi shug'ullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
- shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
- shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
- irodaviy kuchi va intilishlariga.

Psixologik ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, xotira - barcha ruhiy jarayonlarning eng muhim tasnifi bo'lishi bilan bir qatorda, inson shaxsining birligi va yaxlitligi, biologik va ijtimoiylik nisbatini ta'minlab turadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, mexanizmlari to'g'risida muayyan tartibda ma'lumot berish imkoniyatiga ega.

Esda saqlangan ma'lumotni xotiradan chiqarib olib, qayta tiklash ham muhim muammo. Chunki ko'pincha biz xotiramizda kechagina o'qigan ma'lumotning borligini bilamiz-u, lekin kerak bo'lgan vaqtda uni esga tushira olmaymiz. Ma'lumotni xotiradan chaqirib olish omillariga quyidagilar kiradi:

3-shakl



Ma'lumotning anglanganligi

Xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishlash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizgachasini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Bu ko'plab psixologik eksperimentlarda isbot qilingan. Shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada **generatsiya effekti** deb ataladi.

Haqiqatan ham xotiraning imkoniyatlari juda keng. Inson 20 mingdan 100 minggacha so'zni eslab qolishi mumkin. Masalan, mashhur kompyuter dasturchisi Bill Geyts minglab kodlarni yoddan biladi, deyiladi. Sarkarda Aleksandr Makedonskiy esa askarlarini nomma-nom sanab bergani haqida rivoyatlar bor. O'z navbatida kishi xotirasi juda ko'p omillarga bog'liq ekanini ham unutmazlik lozim. Kimdir ko'rganini, kimdir eshitganini yaxshiroq eslab qoladi. Shuningdek, kishi xotirasida qiziqqan narsasi tezroq o'rnashadi. Ba'zan esa ma'lum hissiy kechinmalar unutilgan voqealarni qayta jonlantirgan holatlar uchrab turadi. Hatto til o'rganishga qobiliyati yo'q, deb hisoblangan kishilar begona mamlakatga tushib qolganida, xotiralaridagi yangi qirralar kashf etilgani ham tajribalarda o'z isbotini topgan. Yoshi qirqdan oshgan kishilar gap orasida «Xotira chatoq-da, qarichilik endi!» deb qo'shib ketishi odatiy hol. Aslida esa bunday emas. Ana shu bahonaga tayanadiganlar ko'pincha faol o'rganish davri tugaganidan keyin o'rganishga ishtiyoqni yo'qotishadi va xotirani zo'r berib

ishlatmasliklari natijasida shu ko'ygga tushib qolishadi. Vaholanki, xotirani charxlash kundalik ishiga aylanib qolgan, yoshi etmishga etgan aktyorlar butun boshli matnlarni qiynalmasdan yodlay olishlari barchaga ma'lum.

Demak, xotira zaiflashuviga yoshni sabab qilib ko'rsatish asossiz bahona. Kaliforniya universiteti tadqiqotchisi doktor Marion Daymond miya faoliyati ustida izlanishlar olib borib «Insonning qarishi xotiradagi hujayra bog'larini yo'qotmaydi», degan xulosaga keldi. Boshqa tadqiqotlar natijasi ham bu fikrni qo'llab-quvvatlamogda. Hatto, agar miya davomli ravishda ishlab, ta'limga yo'nalib tursa, hujayralararo bog'lar zichligi yanada mustahkamlanishi xususida qarashlar mavjud. Etmish, sakson yoshli qariyalar bilan olib borilgan tadqiqotlarda aqliy faoliyatning turli davrlarida e'tiborga loyiq natijalarga erishish mumkin ekani isbotlangan.

Demak, xotiraning zaiflashuviga qarilikni sabab qilish o'rinsiz. Fanda xotiraning tabiiy imkoniyatlari uch qismga bo'lib o'rganiladi. Bular taassurot, qaytarish va assotsiatsiyalar.

1. Taassurotga ko'rish va eshitish orqali ega bo'linadi. Insondagi ko'rish hissi boshqa hissiy a'zolarga nisbatan kuchliroq sanaladi. Chunki ko'zdan miyaga boradigan nervlar quloq nervlariga nisbatan 20 marta qalinroq. Masalan, Mark Tven sahnada o'ynashi kerak bo'lgan rolni qaydlar yordamida yaxshi eslab qola olmagach, rasmlar bilan ishlagan va bu qiyinchiliklarni osonlikcha engib o'ta olgan ekan.

2. Qaytarish yoki takrorlash - qadimda ko'pchilik olimlar kichik yoshligidayoq butun boshli kitoblarni aynan qaytarish orqali yod olishgan.

3. Assotsiatsiya - o'xshashlik. Biror faktni boshqa narsa bilan qiyoslash orqali eslab qolish. Misol uchun tanishingizning telefon raqamini uy nomeringiz, tug'ilgan yilingiz yoki kundalik yuradigan avtobusingiz raqami bilan qiyoslab, assotsiatsiya qilishingiz mumkin.

Tadqiqotchi Myuller va Piltsekerlar biror matnni yod olgach, miyani dam oldirish kerakligini ta'kidlashadi. Tin olish jarayonida miya ma'lumotlarni o'z-o'zidan takrorlar ekan. Bu jarayon ma'lumot yodlanganidan keyin o'rinsiz qaytarilaversa ham buziladi.

Natijada miyada hech qanday «muhrlanish» jarayoni yuz bermaydi. Xo'sh, ma'lumotni yodlash bilan mustahkamlash orasida miya qancha vaqt tin olishi kerak? Bu savolga ruhshunos olim Peron javob topgan. U bir necha kishilar ustida tajriba o'tkazib, ularga 18 ta notanish so'zlarni yodlashni va quyidagi jadval asosida takrorlab turishni buyuradi: Tajribada so'zlar 30 soniyadan keyin 14 marta qaytarilganda yaxshi samara bergan. Tanaffus 10 daqiqani tashkil qilganda esa 4 marta takrorlash kifoya qilgan. 10 daqiqadan 24 soatgacha bo'lgan tanaffusda ma'lumotlar qisqa muddatli xotirada mustahkamlangan. 24 soatdan ortiq tanaffuslarda takrorlash miqdori ko'payib boradi va 48 soatga etganida 8 marta qaytarish talab qilinadi. Chunki, bu vaqt ichida xotiraga o'rnashgan qo'shimcha ma'lumotlar xotira quvvatini susaytiradi. Shuning uchun har 24 soatda yodlangan so'zlarni qaytarib turish maqsadga muvofiq.

Psixologiyada xotira 5 ta muhim mezonga muvofiq ravishda turlarga, ajratiladi:

1	Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira turlari	a) harakat yoki motor harakat xotirasi; b) obrazli xotira; v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi; g) so'z-mantiq xotira
	Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan xotira turlari	a) ixtiyorsiz; b) ixtiyoriy; v) mexanik
	Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra xotira turlari	a) qisqa muddatli xotira; b) uzoq muddatli; v) operativ (tezkor) xotira
	Ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra xotira turlari	a) musiqiy; b) eshitish xotirasi
.	Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab xotira turlari	a) fenomenal; b) kasbiy

Matnning ko'p jihatlari bir-biriga o'xshashligi yodlash jarayonini qiyinlashtiradi. Agar so'zlar majmuasi har xil qilib tuzib chiqilsa, ish osonlashadi. Misol uchun ro'yxat tartibida yozilgan biror so'zni eslaganingizda aqlingizga nima keladi? Tabiiyki, uning ro'yxatda joylashgan o'rni. Bu xotiraning kuchiga dalolat qilmaydi. O'sha so'zni eslash uchun bundan ahamiyatliroq jihat yo'qligini anglatadi xolos. Shunday ekan, yod olinayotgan har bir so'z o'ziga xos tarzda boshqalardan ajralib turishi kerak. Ularni yozganda bir xillikdan qochib, rang yoki harf shakllari turlicha qilib tuzilsa, yodlash jarayonida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Shu o'rinda xotiraning sakkiz qonunini quyidagi shaklda ko'rsatib o'tilgan:

1	Anglanganlik qonuni
2	Qiziqish qonuni
3	Ilgarigi bilimlar qonuni
4	Eslab qolishga tayyorlik qonuni
5	Assotsiatsiyalar qonuni
6	Birin-ketinlik qonuni
7	Kuchli taassurotlar qonuni
8	Tormozlanish qonuni

Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustaxkam xotirada muxrlagan bo'lamiz.

Qiziqish qonuni. Anatol Frans: "Bilimlarni yaxshi xazm qilish uchun uni ishtaxa bilan yutish kerak" deganda, albatta, olinayotgan ma'lumotga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz, va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, demak, siz ilgarigi tajribangiz etishmaganligidan uni yaxshi o'zlashtira olmaganligingizni his qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar ham tajribaga aylangandagina, yangilariga zamin bo'la oladi.

Eslab qolishga tayyorlik qonuni. Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday xozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Masalan, fizika o'qituvchisining barcha darslari sizga doimo ma'qul bo'lgan bo'lsa, siz: "Bugun ham yangi narsa o'rganib chiqaman", deb o'zingizni ishontirasiz va oqibatda natija ham yaxshi bo'ladi. Yoki vaqtga nisbatan tayyorlik ham shunday. "Bir amallab imtixon topshirsam, keyin qutulaman", deb darsga tayyorlangan bo'lsangiz, imtixon tugagach, go'yoki miyangizni birov "yuviq qo'yganday" tasavvur hosil bo'ladi. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak, deb umringiz oxirigacha muhimligini anglangiz, u narsa xotirada uzoq vaqt saqlanadi.

Assotsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni konkret xona o'sha erda ro'y bergan hodisalarni ham eslatadi.

Birin-ketinlik qonuni. Xarflarni alfavitdagi tartibda yodda aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ham ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo'ladi. Bundan tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

Tormozlanish qonuni. Xar qanday muayyan ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Shuning uchun uning o'chib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustaxkamlash choralarini ko'rish kerak.

Demak, yaxshi kuchli bilimlarga ega bo'lish uchun xar bir predmet yoki fanning mavzularini o'ziga xos tarzda yoqtira olish va xotirada saqlash uslublarini ishlab chiqish kerak ekan.

Hayol to'g'risida tushuncha. Hayolning aktiv va passiv turlari.

Hayol - bilish jaryonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy harakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini hayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Hayol yoki fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish - inson mehnatining xayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda hayolni o'z ichiga qamrab oladi. Hayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy adabiy, muzikaviy va umuman ijodiy faoliyatining zarur tomoni sifatida namoyon bo'ladi.

Hayol tasavvurning avval idrok qilinib xotirada qolgan materiallardan vujudga keladi. Hayolning asosiy vazifasi hamisha sezgi va idrok yo'li bilan hosil qilingan narsalarni qayta ishlovidan iboratdir. Hayol yo'q narsadan ijod qila olmaydi. Tug'ma garang odam tovushni hech tasavvur qila olmagandek, tug'ma ko'r ham hech mahal ranglarni hayoliga keltirib tasavvur qila olmaydi.

Hayolda oddiy bir stol yasash uchun stolning qanday shaklda bo'lishini, uning balandligini, kengligini, oyoqlari qanday maxkamlanishlarini, ovqatlanish stoli, laboratoriya stoli yoki yozish stoli sifatida o'zining belgilangan xizmatiga qanchalik javob berishini oldindan tasavvur qilish lozim. Qisqa qilib aytganda, ishni boshlashdan oldin bu stolni tayyor ko'ra bilish talab qilinadi.

Hayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxiri va oraliq maxsulotlarda o'z ifodasini topadi, shuningdek muommali vaziyat noaniqlik ko'rsatgan hollarda xulq-atvor dasturini tuzishni tahminlaydi. SHuning bilan birga hayol aktiv faoliyatni programmalashtiruvchi emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi.

Hayol tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Hayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi.

Tafakkur bilan hayol o'rtasidagi umumiylik hamda ular o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat? Hayol tafakkur singari, muammoli vaziyatda, ya'ni masala yechishning yangi usullarini qidirib topishda yuzaga keladi. Tafakkur singari hayol shaxsning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ehtiyojlarni qondirishning soxta, hayoliy jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin.

Hayol shunday jarayonki, u xatto tafakkur uchun kerak bo'lgan to'la va zarur bilimlar bo'lmagan joyda ham biror qarorga kelish hamda muommali vaziyatdan chiqish imkonini beradi. Fantaziya tafakkurning qandaydir bosqichlaridan «sakrab o'tish» va so'nggi natijani tasavur qilish imkonini beradi.

Hayol o'zining aktivligi va faoliyati bilan harakterlanadi. Hayolning **passiv hayol formasi** - oldindan o'ylab yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan, jo'rttaga yuzaga keltirilgan iroda bilan bog'liq bo'magan, lekin hayotda gavdalanirishga qaratilgan hayolning mana shunday obrazlari shirin hayolga misol bo'la oladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar

xaqida shirin hayol surish hamma odamlarga xosdir. Ammo inson hayoliy jarayonlarida shirin hayol kechirish hollari ko`proq bo`lsa bu shaxsning passivligidan dalolat beruvchi nuqson hisoblanadi.

Aktiv hayol formasi qayta tiklovchi va ijodiy hayol turlariga bo`linadi. O`z asosida tasviriga muvofiq keladigan obrazlar tizimini yaratuvchi hayol qayta tiklovchi hayol deb ataladi. Ijodiy hayol - qayta tiklovchi hayoldan farq qilgan holda, original va qimmatli moddiy maxsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarning yaratilishini taqozo qiladi. Mehnatda paydo bo`lgan ijodiy hayol ehtiyojlarini qondirish yo`lini izlashda yaqqol tasavvurlar bilan aktiv va maqsadga muvofiq ish tutadigan texnik, badiiy va istalgan boshqa ijodiyotini ajralmas tomoni bo`lib qoladi.

Ijodiy hayol - tiklovchi hayoldan farqli o`larok original va qimmatli moddiy, ijodiy maxsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat hayol turidir. Shu bilan birga, mustaqil ravishda yangi obrazlar yaratish uchun ijodiy faoliyatda qatnashgan, ya`ni natijasida qimmatli yangi bir narsa hosil bo`ladigan faoliyatdagi hayolni aytamiz. Yozuvchi, rassom, kompozitor, olim, ixtirochi va boshqa buning kabi kishilarning hayoli ijodiy hayoldir.

Ijodiy hayol, tasavvur hayoliga qaraganda ancha murakkab va qiyin jarayondir. Hayol muhim rol o`ynamagan xech bir ijod sohasi yo`q.

Hayolning ixtiyoriy va ixtiyorsiz faoliyati. Diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsizi bo`lganidek, xotiralanish va xotiraga keltirishning ham ixtiyoriy va ixtiyorsizi bo`lganidek, hayolning ham ixtiyoriligi darajasi turli bo`ladi.

Hayolning mutlaqo ixtiyorsiz ishlashining misoli **tush ko`rishdir**. Tush ko`rgandagi obrazlar kishining xohishi, bilan tug`ilmaydi, ular xohish bilan o`zgarmaydi. Tushdagi obrazlar o`rtasida xech kutilmaganda juda g`alati, bahzida mutlaqo tasavvur qilib bo`lmaydigan munosabatlar tug`ilib, chalkashib ketadi. Kishining uyquasi kelib mudroq bosgan chog`idagi, masalan, kishi endigina uxlay boshlagan vaqtdagi hayolning ishi ham asosi jihatidan ixtiyorsizdir.

Tasavvur hayoli - bir narsa xaqidagi ma`lumotga asoslanib (yoki chizma surat va tarhiga suyanib) uning muvofiq bo`lgan obrazini tasavvurga keltiruvchi hayolni aytamiz. O`quvchi fizika yoki kimyo darsligida bayon qilingan biron tajribani o`qiganda, unda bayon qilingan asboblarning turgan joyini, qilinadigan ishlari va bu ishlarning natijasi va hakozolarni mumkin qadar aniq va ravshan tasavvur qilmog`i lozim. O`quvchining ana shu ishi tasavvur hayolning ishidir. Bir mashinaning quruq chizmasini ko`rganda, bu mashinaning har bir bo`lak va qismining turgan joyini va bir-biriga qanday aloqasi borligini aniq va ravshan tasavvur qilishi lozim bo`ladi. Bu ham tasavvur hayoliga misol bo`la oladi, ya`ni uning "texnik hayoli" deyilgan alohida bir turidir. Har bir injener, texnik va usta ishchining hunaridan kerak bo`lgan bu texnika hayoli, mashinaning chizmasiga qarab, ko`rsatilgan mashinani, apparatni uning turli qisimlarini hayolida aniq "ko`rish" qobiliyatini talab qiladi.

Tasavvur hayoli kishi psixikasining o'sishi uchun ham muhimdir. Tasavvur hayoli kishiga boshqalarning hikoyasiga va bayoniga suyanib o'zi aslo ko'rmagan va ko'rishga imkoni bo'lmagan narsalarni tasavvurda ko'rishga imkon beradi va bu bilan kishiga faqat o'z turmushida ko'rgan narsalari doirasida chegaralanib qolmasdan, bu doiradan tashqari ham chiqish imkonini beradi va uning bilimlarini jonli qilib, konkretlashtiradi va oshiradi.

Tasavvur – ilgari idrok etilgan, ammo ayni vaqtda bevosita idrok etilayotgan narsa va hodisalarning inson miyasida qayta ishlanib, tiklangan hissiy obraziga aytiladi. Tasavvur shaxsning ma'lum bir munosabatlarga kirishayotganida, ta'sirlanish jarayonida undagi bahzi bir hislatlarni xotiraga tushirishda muhim rolg' o'ynaydi. So'zda ifodalanayotgan axborotga tasavvurni qo'shib eslab qolish ancha oson chunki, tasavvurda obrazlarni gavdalanitirish orqali ancha oson eslab qolish mumkin. Tasavvur, tafakkur, xotira, tushuncha, idrok kabi murakkab bilish jarayonlari sezgi jarayonlariga asoslangan. Inson idroki turli nuqtai nazarlar asosida, masofadan, vaziyatdan, holatning yoritilish darajasi sharoitida obyektidan olinadigan taassurotlarga oid ma'lumotlarni analiz va sintez qiladi.

Idrok va tasavvurlarda aks etadigan narsa va hodisalar tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tafakkur voqelikning umumlashtirilgan to'liq hamda eng aniq ifodasidir.

Hayolning alohida bir shakli bu - orzudir. Ijodiy hayol singari orzu ham alohida, mustaqil yangi obrazlar yaratishdir. Ammo orzuning ijodiy hayoldan farq qilgan ikki muhim xususiyati bor:

1. Orzu - tilakdagi mavjud obrazlar yaratilishi, lekin ijodiy hayol yaratgan obrazlar hamma vaqt yozuvchining tilaklarida gavdalanavermaydi. Misol uchun, N.V.Gogol asaridagi Chichikov, Plyushkin, Nozdrevlar kabi salbiy obrazlarni, «Gogolning orzusi» deb bo'lmaydi. Kishining orzularida uning tilaklari, uni jalb qilgan narsalari, uning intilishlari obraz shaklida gavdalanadi.

2. Orzu - ijodiy faoliyat doirasiga kirmagan, ya'ni badiiy bir asar, ilmiy kashfiyot, texnikaga oid ixtirochilik va boshqa buning kabi narsalarda oshkor bo'lib, bevosita va darhol bir samara bermagan hayoldir. Orzu kelajakka qaratilgan, kelajak bo'lganda ham tilakdagi kelajakka qaratilgan hayol surishdir.

Tafakkur haqida umumiy tushuncha.


Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuqori shakli, real olamni aks ettirishning umumlashgan va bevosita usuli bo'lib, obektlar orasidagi bog'liqlik, bilish jarayoni, yangi bilimlarni ochish, ijodiy, muammoli masalalarni echishga qaratilgan jarayondir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bilvosita, umumlashgan xolda aks ettiruvchi psixik jarayon bo'lib, u ijtimoiy sababiy ichki bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari uni til bilan bevosita bog'liqligidir. Tafakkur nutqda namoyon bo'ladi. Tafakkur inson hayoti

tajribasida sezgi, idrok va tasavvurlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok asosida olamni aks ettirish yanada aniq va to'g'ri bo'ladi. Tafakkur borliqni umumlashgan holda aks etishidir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bulganda tafakkur ishga tushadi. Tafakkur yordamida biz predmetlar orasidagi bog'liqlik va munosabatlarni yana ham chuqurroq anglaymiz va ochib beramiz. Tafakkur orqali biz bevosita kuzatmagan narsalarni ham bilishimizga imkon yaratadi.

Tafakkur - jiddiy ravishda yangilik qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelikni bivosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o'tadi. Biroq eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan bog'langan bo'ladi. Kishi tafakkur jarayonida hissiy bilish chegarasidan chetga chiqadi.



Tafakkur jarayonida fikrlash operatsiyalariga: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikatsiyalash va sistemalashtirish kiradi.

Analiz - obyektning u yoki bu tomonlarini, elementlarini, xossalarni, bog'lanishlarini, munosabatlarini ajratib olib, o'rganilayotgan obyektning har xil komponentlarga (tarkibiy qismlarga) bo'lish demakdir. Analizning yordami bilan narsa va hodisalarning xususiyatlarini fikran yoki amaliy tahlil qilinadi. Bir butun narsani analiz qilish natijasida ajratilgan komponentlarni birlashtirish sintezdir.


Sintez - narsa va hodisalarning analizda bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun xoliga keltirishdir. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun qilib qo'shishdan iborat aqliy faoliyatdir.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustaxkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomoni bo'lib, agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun xolda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash - predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir-biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarni topish. Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo'l bilan amalga oshishi mumkin:

- **amaliy** - konkret narsalarni bevosita solishtirish;
- **nazariy** - tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash.

Inson shaxsiy faoliyatida, ta'lim jarayonida taqqoslash ustida qanchalik ko'p mashq qilsa, taqqoslash ko'nikmasi paydo bo'lsa, unda fikr yuritish shunchalik samarali bo'ladi.




Umumlashtirish - umumiy va muhim sifatlariga ko'ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiyashtirish kabilar kiradi. Umumlashtirish deganda psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat, alomatlarni topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi. Umumlashtirish asosida **abstraksiyalash** jarayoni yotadi. Umumlashtirish jarayoni abstraksiyasiz mavjud bo'lishi mumkin, lekin abstraksiyasiz umumlashtirishning yuzaga kelishi mumkin emas. Narsa va hodisalarning, qonun va qonuniyatlarning ayrim belgisi, sifati, alomati yoki xususiyatlarini fikran ulardan ayirib olib, mustaqil fikr obyektiga aylantirishdan iborat fikr yuritish operatsiyasi - abstraksiyalashdir.


Konkretlashtirish - mavhumlashtirishning teskari jarayoni bo'lib, ayrim xususiyatlarni konkret buyumida, predmetga qo'llashdir. U hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar, bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Klassifikatsiyalash - bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimiga aytiladi. Fan olamida buyuk kashfiyot bo'lib hisoblangan D.I.Mendeleyevning «Elementlarning davriy tizimi» jadvali klassifikatsiya uchun yorqin misoldir.

Sistemalashtirish operatsiyasi yordamida narsa va hodisalar, faktlar, fikrlar va obyektlar makondagi, vaqtdagi egallagan o'rniga qarab yoki mantiqiy joylashtiriladi.



Tafakkur shakllari psixologiyada tushuncha, hukm, xulosa chiqarish bosqichlarida ifodalanadi.



Tushuncha - inson voqelikni bilish jarayonida narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularning o'xshashligi va farqini aniqlaydi: analiz va sintez yo'li bilan narsa va hodisalarning mohiyatini ochadi, fikran ularning belgilarini ajratadi, bu belgilarni abstraktsiyalashtiradi va umumlashtiradi. Natijada odam voqelikdagi narsa va hodisalar to'g'risida tushuncha hosil qiladi.

Hukm - narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikrdir. Moddiy olamda haqiqatdan bog'liq bo'lmagan narsa hukmda bog'liq qilib ko'rsatilsa, bunday hukm xato yoki yolg'on hukm deb ataladi.


Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi.

Xulosa. Bir qancha hukmlarning mantiqiy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Psixologiyada xulosa chiqarish jarayonida foydalanilgan tayyor hukmlar asoslar deyiladi, ularni taxlil qilib chiqarilgan yangi hukm esa xulosa deb

ataladi. Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz.

Intuitiv va analitik tafakkur. Tafakkur aktivligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi.

Intuitsiya - mantiqiy tafakkur yordamida ko'p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to'satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoni ataladi. Shaxsning muayyan soxadagi hayotiy yoki ilmiy tajribalariga asoslangan intellektual sezgirligidan iborat faoliyatdir. Kupincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muxokama, isbotlash, gipoteza kilish kabi shakllarda namoyon buladi.



O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Diqqat jarayoni to'g'risida tushuncha bering.
2. Diqqat xususiyatlari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Sezgi jarayoni haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
4. Sezgi turlariga tarif bering.
5. Idrok haqida tushuncha bering.
6. Xotira haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
7. Xotiraning xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Xotiraning qonunlarini tushuntirib bering
9. Gallyutsinatsiya nima?
10. Tafakkur jarayoni to'g'risida tushuncha bering.

11. Tafakkur turlarini tushuntirib berish
12. Eyidizm nima ?
13. Divergent tafakkur nima?
15. Illyuziya nima?

3-MAVZU:. SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI : TEMPERAMENT,XARAKTER,QOBILIYAT

REJA:

1. Temperament turlariga psixologik xarakteristika.
2. Xarakter xususiyatlari va tipologiyasi.
3. Qobiliyatlar va ularning turlari.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Temperament, xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik, senzitivlik reaktivlik, ekstrovertlik, introvertlik, xarakter, xarakter aktsentuatsiyasi , qobiliyat, layoqat, iste`dod, iqtidor, talant, geniallik

Mashg`ulotni o`tkazish joyi: auditoriya

Mashg`ulotning jihozlanishi: tarqatma materiallar, texnik vositalar

Mashg`ulotning davomiyligi: 2 soat

**Mashg`ulotning maqsadi:** Talabalarda shaxsning individual xususiyatlari – temperament, xarakter va qobiliyatni to`g`risidagi umumiy tushunchalarga ega bo`lishi, bu xususiyatlarining namoyon bo`lishi g`aqida tasavvurlarini va amaliy ko`nikmalarni shakllantirish. qobiliyat haqida tushuncha qobiliyatlarning miqdor va sifat tasnifi, qobiliyatlarning turlari va tarkibi haqidagi bilimlarni shakllantirish. Individual xususiyatlar va ularning inson faoliyatiga tasiri haqida amaliy ko`nikmalarni shakllantirish.

Kutilayotgan natija: Talabalar shaxsning individual xususiyatlari – temperament, xarakter va qobiliyat haqida bilimga ega bolishlari, ko`nikmalarni shakllantirish hamda shaxsning individual xususiyatlarining inson hayotiga ta`siri bo`yicha ma`lumotlarni oladilar. Shu bilan birga ularning insonlar bilan bo`ladigan munosabatlarigagi namoyon bo`lishi haqida ham ma`lumotga ega bo`ladilar. Talabalarga qobiliyat haqida tushuncha qobiliyatlarning miqdor va sifat tasnifi, qobiliyatlarning turlari va tarkibi haqida dastlabki ma`lumotlar zahirasi berish hamda mazkur jihatlar psixologiya sohasining o`rganish ob`ekti ekanligini asoslab berildi.

Mashg`ulot mazmuni:

Nazariy qism :

Temperament. Temperament turlariga psixologik xarakteristika.

Temperament – (lot. «tem`eramentum» - aralashma) inson psixikasining individual jihatdan o`ziga xos, shaxs faoliyati va xulqining dinamik, ya`ni o`zgaruvchan va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi xususiyatlar majmuidir.

Shaxsning individual xususiyatlari uning tug`ma, biologik xususiyatlariga bog`liq. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo`lsa, ikkinchi tomondan biologik - yaxlitlik, tug`ma sifatlarni o`z ichiga olgan individ hamdir.

Temperament hayotiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni «yaxshi - yomon», «ahamiyatli - ahamiyatsiz» me`zonlari asosida ajratishga imkon berib, bunda temperament odamning ijtimoiy obyektlarga nisbatan «sezgirligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi.

Temperament xususiyatlari aslida - tug`ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo`lgani uchun ham ma`lum ma`noda dinamik ko`rinishda bo`ladi. Shu bois, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimiga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Temperament haqida ta`limot ilk bora yunon tabibi Gippokrat (eramizdan avvalgi 460 – 356 yillarda) tomonidan yaratilgan bo`lib, uning ta`limotiga asosan «temperament» tushunchasi paydo bo`lgan va temperament turlarining nomlari shu kunga qadar saqlanib qolgan. Gippokrat fikricha inson organizmida **4 xil suyuqlik mavjud**: sag`ro (yunon - “chole”), qon (lotin - “sanguis”), qora o`t (yunon - “melane chole”), shilimshiq (yunon - “hlagma”). Har bir suyuqlik o`z xususiyati va o`rniga ega. Safro xususiyati – quruqlik. Uning o`rni organizmda quruqlikni saqlash. Qonning xususiyati – issiqlik. U organizmni isitadi. Qora o`t xususiyati – namlik. U organizmdagi namlikni saqlashga xizmat qiladi. Shilimshiqning xususiyati – sovuqlik. U organizmni sovutishga xizmat qiladi.


Gippokrat ta`limotiga muvog`iq, insonda to`rt xil suyuqlikdan bittasi ustuvorlik qiladi. Ushbu suyuqliklar munosabati yunon terminalogiyasida **“krasis”** (aralashma, qorishma) deb ataladi, tarjima qilinganda **“temperament”** tushunchasi yo`zaga keladi.

Temperamentga taalluqli Abu Ali Ibn Sino qarashlari (980-1037) ham juda qiziqarlidir. U temperamentga tabiiy va psixologik tushuntirish beradi. Ibn Sino ta`limoti Gippokrat ta`limotiga asoslangan bo`lib, uning fikricha temperament bir-biriga qarama-qarshi sifatlar munosabatida yo`zaga keladigan xususiyatdir. Ulardan birining ustuvorligi temperament turini yo`zaga keltirib, bunda organizmdagi 4 ta suyuqlikdan biri ustuvor bo`ladi. Ibn Sinoning fikrlari temperament haqidagi ta`limot tarixida o`ziga xos ahamiyatga ega.

Ilk bora temperament xususiyatlarining psixologik tavsigi nemis faylasufi I. Kant gumoral nazariya asoschilariga suyangan holda, temperament va xarakter sifatlarini aralashib ketishi fikrini namoyon qildi.

Buyuk g`iziolog, oliy nerv faoliyatining asoschisi I.P.Pavlovning bergan ta`rifi ko`ra: **temperament** – har bir insonning alohida umumiy tavsifi bo`lib, nerv tizimining asosiy tavsifidir va u individning faoliyatigi alohida tus beradi.

Temperament haqidagi ilmiy nazariyaga I.P.Pavlov ta'limoti asos solgan. I.P.Pavlov nerv tizimining tipologik xususiyatlarini – oliy nerv faoliyatini ta'limotida ifodalab bergan. Oliy nerv faoliyatida I.P.Pavlov quyidagi nerv jarayonlarini ajratdi:




Nerv tizimining kuchi fiziologik moddaning ko'pligiga qarab aniqlanib, unga asosan kuchli nerv tizimining turida - moddalar zahirasi ko'pligi, kuchsizda esa - kamligi ko'zatiladi. Nerv tizimining kuchi qo'zg'alish jarayoniga bog'liq bo'lib, u tormozlanishda ifodalanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan sifatlarga asoslanib, I.P.Pavlov oliy nerv faoliyatining asosiy turini ajratadi. Ular Gippokrat temperament turlariga mos keladi:

1	Kuchli, og'ir vazmin emas. (qo'zg'alish tormozlanishdan ustuvor). Tez qo'zg'aluvchan tur.	Holerik turga xos.
2	Kuchli, og'ir vazmin, harakatchan tur. Jonli tur.	Sangvinik turga xos.
3	Kuchli, og'ir vazmin, bosiq, sekin harakatlanuvchan.	Flegmatik turga xos.
4	Kuchsiz tur.	Melanholik turga xos.

Shunday qilib, I.P.Pavlov ta'limotiga asosan temperament oliy nerv faoliyatining inson xatti-harakatida namoyon bo'ladigan individual xususiyatidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek akademik S.Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliy nerv tizimi xossalarini ajratgan edi:





Shaxs uchun xarakterli bo'lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida kishining temperamenti qandayligi haqidagi tasavvur vujudga keladi. Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi haqida mashhur psixolog V.S.Merlin temperamentning psixologik tastig'ini keltirib o'tgan:

- **senzitivlik** – tashqi ta'sirlarga ma'lum miqdordagi psixik javob berish kuchi;

- **reaktivlik** – emotsional reaksiya kuchi, emotsionallik, ta'sirchanlik, taassurotga berilish;

- **faollik** – tashqi olamga ta'sir etish;

- **raktivlik va faollik munosabati**;

- **ta'sirga javob tempi** – psixik jarayonlar va ta'sirlar kechishi tezligi;

- **plastiklik** – egiluvchanlik, beriluvchanlik;

- **rigidlik** – interlik, xulq-atvor ikkiluvchanligi;

- **ekstravertlik** – inson reaksiyasini tashqi ta'sirga bog'liqligi;

- **introvertlik** – inson reaksiyasini ichki obrazlar, fikrlar o'tmish va kelajakka bog'liqligi;

- **emotsional qo'zg'aluvchanlik** – emotsional jarayonlarning kechishi va tashqi ifodalanishi.

Inson asab tizimi bilan bog'liq individual sifatlarni bilish orqali, bevosita mehnat va o'qish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etish mumkin. Asabga bog'liq bo'lgan tabiiy xususiyatlarni umuman o'zgarmas deb bo'lmaydi, chunki tabiatda o'zgarmaydigan narsaning o'zi yo'q. V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bogliqdir. Psixologik ma'lumotlarda e'tirof etilishicha, irsiyat va turmush sharoitlari ham temperament tiplari o'rtasidagi tafovutlarning sababchisi bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda temperament tiplarini ko'rib chiqamiz.

Sangvinik - juda faol, qiziquvchan bo'lib, atrog'dagi narsalar, insonlar diqqatini tez jalb etadi. U imo-ishoralarni ko'p ishlatib, uning chehrasiga qarab kayg'iyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay, kuchsiz ta'sirni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatli bo'ladi, imtizomli, o'zini tiya biladi va boshqara oladi. Uning xatti-harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki teran, qiziqishlari, kayg'iyati, intilishlari

o`zgaruvchandir. Ko`nikma va malakalarni tez egallaydi, ko`ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi, uning g`antaziyasi yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta`sirlarga xozirjavob. Besabab xoholab kulish mumkin, arzimagan narsaga qattiq jahlini chiqarish ko`zatiladi. Barcha narsa faollik va intilish bilan munosabat bildiradi. Uning yo`zidan kayg`iyatini bilish mumkin. Diqqatini tez to`playdi. His-tuyg`uga beriluvchan. Past ovoz va past yorug`lik qo`zg`atuvchilarni ilg`amaydi. Uzoqvaqt ishlab charchamasligi mumkin, ishiga ishtiyoq bilan kirishadi. Tartib intizomli. Ekstravert. Fikrlar tezligi juda yuqori. Odamlar bilan juda tez kirishadi, yangi odamlar, vaziyat, holatga tez ko`nikadi. Yig`lab turib, kulib yuborish holatlari ko`zatiladi. Tez ishga kirishadi va tez sovishi mumkin. Bir yo`nalishda uzoqishlay olmaydi. Va`da berib ba`zan bajaraolmasligi ham mumkin.

Holerik - sust senzitivlik xususiyatiga ega bo`lib, juda faol va reaktivdir. Ko`pincha reaktivligi faollikdan ustun kelib, u betoqatlik, serzardalik va giperaktivlikni kutilmaganda portlovchi, qiziqqon, betoqatlikni namoyon qiladi. Sangvinikka qaraganda qo`zg`aluvchan, lekin ko`proq rigid, qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat`iylik mavjud bo`lsa-da, biroq diqqatni bir joyga to`plashda qiynaladi, nutq sur`ati tez. Egiluvchan emas, kuchli qat`iylik, diqqatning ko`chishida qiyinchiliklar mavjud. Yuqori tezlikda psixik tempga ega. Ekstravert. Tez qo`zg`aluvchan, u mimika jestlardan ig`odalanadi. Qat`iy tez, insonlarga nisbatan intiluvchi.

Flegmatik - senzitivligi sust, his-tuyg`usi kam o`zgaruvchan, shunga ko`ra bunday shaxsni kuldirish, jaxlini chiqarish, kayg`iyatini bo`zish qiyin bo`lib, ko`ngillsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo`ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishorasi, mimikasi ko`zga yaqqol tashlanmasada, lekin serg`ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatlidir. Uning nutq va harakat sur`ati sust. Diqqatni to`plashi osoyishta, rigid ko`rinishida bo`lib, diqqatni ko`chirishi qiyin kechadi. Introvertlashgan, kam gap, ichimdagini top toifasidan bo`lib, yangilikni qabul qilishi murakkab va tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beruvchandir. Kuchsiz mimikaga ega. Harakatlari ig`odasiz. Ishchan. Faollik reaktivlikdan ustuvor. Sabr-bardoshli, o`z-o`zini boshqara oladi. Nutqi sekin, rigid, diqqatni sekin to`playdi. Bir ishdan ikkinchi ishga sekin o`tadi. Yangi ish, vaziyatga sekin ko`nikadi. Ish boshlasa qat`iy va bir yo`nalishda ish qiladi.

Melanholik - senzitivligi yuksak, tortinchoq, g`ayratsiz, arazchan, xafaqon, jimgina yig`laydi, kam kuladi, qat`iyligi va mustaqilligi zaig`, tez toliqadi, ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg`usi sust o`zgaruvchan. Rigid va introvert. Yuqori senzitivlik, yuqori tuyg`uga beriluvchanlik. Uyatchan, tez xafa bo`ladi. Mimika va jestlar yaxshi namoyon bo`lmaydi. Sust faollik. O`z-o`ziga ishonch yo`q, arzimagan narsalardan tushkunlikka tushadi. Qat`iy emas, tez charchaydi, ishchan emas, diqqati tez bo`ziladi.

Barcha odamlarni to`rtta tip bo`yicha taqsimlash mumkin emasligi tushunarli. Temperamentlarning turli-tumanligi to`g`risidagi masala fanda

hali batafsil hal qilingan emas. Ammo keltirilgan temperament tiplarini asosiy deb hisoblash mumkin.

Xarakter. Xarakter xususiyatlari va tipologiyasi.

Kundalik hayotimizda “xarakter” soʻzi koʻp ishlatiladigan soʻzlardan. Uni biz doimo birovlariga baho bermoqchi boʻlsak, ishlatamiz. Bu soʻzning maʼnosini olimlar “bosilgan tamgʻa” deb ham izohlashadi.

Xarakter - ijtimoiy muhit taʼsirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqelikka va oʻz-oʻziga boʻlgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yigʻindisidir (yunonchadan «xislat», «belgi», «tamgʻa»). Xarakter hamisha shaxsning oʻziga xos boʻlgan sifatlarini belgilab beradi. Shuning uchun ham xarakter kishining biror hayotiy vaziyat sharoitida oʻzini qanday tutishini oldindan koʻrish imkonini beradi.

Xarakter tugʻma boʻlmaydi. Faqat layoqat nishonlari tugʻma boʻlishi mumkin, ular nerv sistemasining xususiyatlariga bogʻliq boʻladi. U kishining hayot va faoliyat sharoitlariga bogʻliq holda tarkib topib, oʻzgaruvchan va tarbiyalanuvchandir. Maxsus sharoitda taʼlim-tarbiya taʼsirida salbiy xarakter xususiyatlarini bartaraf qilish, ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantirish mumkin. Munosabatlarning xarakterdagi oʻrni xususida V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentini ajaratadi:

emotsional	-	borliq muhitning turli tomonlarini
kognitiv		shaxs qanday emotsional his qilishi va oʻzida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi
motivatsion	-	maʼlum harakatlar va xulqni
irodaviy		amalga oshirishga undovchi kuchlar

Demak, bizning munosabatlarimiz maʼlum maʼno va mazmun kasb etgan munosabatlar boʻlib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon boʻladi.

Xarakterda oʻzlashtirilayotgan hayotiy timsollar shaxsning xulq-atvori va faoliyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sifatida tarkib topishni taʼminlovchi psixologik vositalar inson «Men»ining tavsigʻlovchi poydevori hisoblanadi.

Xarakter - shaxsning individual xususiyatidir. Xarakterlari mutlaqo bir xil boʻlgan kishilarni topib boʻlmaydi, lekin ayrim kishilarning xarakterlaridagi koʻp narsalar bir guruh kishilar uchun yoki xatto butun jamiyat uchun tipik boʻlishi mumkin. Bir jamoada mehnat qilayotgan kishilar uchun jamoatchilik, oʻzaro yordam koʻrsatishga intilish, mehnatni xurmat qilish singari xususiyatlar tipik xususiyatlardir.

Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan boʻlsak, uning borliqdagi obyektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham psixologiyada xarakterning quyidagi tizimi eʼtirof etiladi:

- **mehnat faoliyatida namoyon boʻladigan xarakterologik xususiyatlar** - mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, mas'uliyat, dangasalik, qoʻnimsizlik va boshqalar;

- **insonlarga nisbatan boʻlgan munosabatlarda namoyon boʻladigan xarakterologik sifatlar** - odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, muloqotga kirishuvchanlik, altruizm, gʻamhoʻrlik, rahm-shafqat va boshqalar;

- **oʻz-oʻziga munosabatga aloqador xarakterologik sifatlar** - kamtarlik, kamsuqumlilik, magʻrurlik, oʻziga bino qoʻyish, oʻz-oʻzini tanqid qilish, ibo, sharmu-hayo, manmansirash va boshqalar;

- **narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon boʻladigan xususiyatlar** - tartiblilik, oqillik, saronjom-sarishtalik, qoʻli ochiqlik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Xarakter temperamentdan farqli oʻlaroq hayotda, muomala va hamkorlikdagi faoliyat jarayonida vujudga kelishi va shakllanishida farq qiladi. Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon boʻlishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir. Avvalo xarakter insonning **xatti-harakatlari va amallarida** namoyon boʻladi - odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning kim ekanligidan darak beradi.

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar taʼsirida amalga oshib, uning har bir xislati shaxs munosabatlariga bogʻliq boʻladi, ular oʻz navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaqlarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shaqllanishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shu sababdan ijtimoiy toʻzumni tavsigʻlovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlarigina emas, balki xarakterning individual xususiyatlari va xislatlari tarkib topishiga ham katta taʼsir oʻtkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bogʻliq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida xayrihohlik, oʻrtoqlik, oʻzaro yordamlashish, hamkorlik yoki, aksincha, johillik, zolimlik, badjaxllik kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlarning koʻrinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning oʻziga xos xususiyatlari shakllantirilsa, bolalar bogʻchasidagi, maktabdagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus xislatlarini tarkib toptiradi. Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarida sezilarli oʻzgarishlar yoʻzaga kelib, ilk yoshlik davrida esa shakllangan xarakter xislatlari nihoyat darajada barqaror boʻlib, ularga ayrim oʻzgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Shaxsda mayllarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bogʻliq holda tarkib topgan munosabatlar oʻzining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xarakter xislatlarining chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi koʻp jihatdan shaxs munosabatlarining onglik darajasiga bogʻliq. Insonning haqqoniylik, mehnatsevarlik xislatlari tasodigʻiy tarkib

topmagan bo`lib, uning ongli qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo`ladi.

Xarakter xususiyatlarining variantlilikligi ularning faqat sifat jihatidan rang-barangligi va o`ziga xosligida emas, balki miqdor jihatidan ig`odalanganligida ham namoyon bo`ladi. Xarakter xususiyatlarining miqdoriy ifodalanishi, ya`ni ayrim belgilarning haddan tashqari kuchli namoyon bo`lishi shaxs xulq-atvori me`yoringing eng oxirgi marrasiga borib, patologik belgilar bilan chegaralanish holatida ko`zatiladi. Bu holat psixologiyada **xarakter aktsentuatsiyasi** ya`ni, me`yordan ortishi deb ataladi. Bunda shaxsda boshqalarga nisbatan barqarorlik bo`lgani holda bir xil qattiq hayajonlantiruvchi omillarga zaig`lik ortishi ko`zatiladi.

Xarakter aktsentuatsiyasi turlari olimlar tomonidan turli xil ko`rinishda ajratib ko`rsatiladi. Ularning ayrimlari haqida to`xtalib o`tamiz:

Ta'sirchan tip - bu toifadagilar muomalada tortinchoq, ko`p hollarda tund va injiq bo`lib, yolg`onchilikka, surbetlikka, nizoga moyildirlar. Shuningdek, bunday holatlarda ular doim faol bo`ladilar. Bu toifadagilar xotirjam bo`lganlarida sofdil, hayvonlar va kichkina bolalarni yaxshi ko`radilar, kayfiyatlari yomon bo`lganida esa injiq, jaxldor, o`zlarini idora eta olmaydilar.

**To`xtaluvchan tip** - bu toifadagilar me`yorida hamsuhbat, pisman, aql o`rgatuvchi, kamgapdirlar. Ular nizoli holatlarda faol, tashabbuskor bo`lib, tanlagan faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga intiladilar. Ular o`ziga nisbatan o`ta talabchan bo`lib, ijtimoiy adolatga xayrihoh, shuning bilan birga arazchi, hamda qasoskor bo`ladilar. Ba`zida haddan ziyod o`ziga bino qo`ygan, to`g`riso`z, rashkchi, yaqinlariga va qo`l ostidagi xodimlarga nisbatan o`ta talabchan bo`lib qoladilar.

Sinchkov (pedant) tip - mojarolarga kam aralashib, xizmat doirasida o`zini qattiqqo`ldek tutib, atrofdagilarga ko`p talablar qo`yadi. Shuningdek yetakchilikni bajonidil boshqa odamlarga beradi. Ba`zida oila a`zolariga tartib borasida o`ta talabchan. Uning ijobiy xislatlari: sofdil, tartibli, jiddiy, sadoqatli. Salbiy tomonlari: rasmiyatchi, pisman, qiziqqon.

Tashvishli tip - bu toifadagilar past kirishimli, o`ziga nisbatan ishonchsiz bo`ladilar. Ular nizolarga kam aralashadilar va bu holatda qo`llab-quvvatlovchi va tayanch axtaradilar. Ular do`stlikni qadrlaydilar, o`z-o`ziga tanqid ko`zi bilan qaraydilar, o`ziga topshirilgan vazifalarni so`zsiz bajaradilar, o`zining himoyasizligi oqibatida ko`p hollarda hazil-xuzul uchun nishon bo`ladilar.

**Jo`shqin (hayajonli) tip** - bu toifadagilar tor doirada saralangan odamlar bilan aloqa qilishni afzal ko`radilar. Ular kam hollarda mojarolarga aralashib, xafachiliklarini ichlarida saqlaydilar. Ijobiy xislatlari: samimiylik, rahm-shafqatlilik, o`zgalarning yutug`idan quvonadigan hamda bo`ysunuvchan. Salbiy tomonlari - yig`loqi, o`ta hissiyotli, izzattalab.

Namoyishkorona tip - tez muomalaga kirishuvchanlik, yetakchilikka intiluvchanlik, ko`ngilchanlik, boshqalarga tez ko`nikuvchanlik **xususiyatlarini mazkur tipga** xosdir. Ularda xokimiyatni egallash hissi

ustuvor bo`lib, maqto'vni juda yoqtiradilar. Bunday kishilar o`ziga ishonchliligi va o`ziga tortuvchanliklari bilan atrofdagilarning g`ashiga tegib, mojarolarni o`zlari keltirib chiqaradilar va bu holatda faol tarzda o`zlarini himoya qiladilar. Ularning ijobiy tomonlari - sabr-qanoatlilik, artistlik qila oladigan, boshqalarni o`ziga qarata oladigan, to`g`riso`zligidir. Salbiy tomonlari esa - xudbinlik, shaxsiyatparastlik, maqtanchoqlik, dangasalikdir.

Ekstraversiv tip - o`ta kirishimli bo`lib, bunday odamlarning do`stlari va tanishlari juda ko`p bo`ladi. Bunday odamlar ezmali darajasigacha ko`p gapiradilar, har qanday ma`lumotni ulardan ochiqchasiga bilib olish mumkin. Bu toifadagilar do`stlar davrasida, ishda, oilada, ko`pincha yetakchilikda boshqalarga yon bosib, boshqalarga bo`ysunishni va chetda turishni afzal ko`radilar. Ular o`zgalarni diqqat bilan eshitishga tayyorlik, so`rashgan narsani bajarish kabi ijobiy xislatlarga egadirlar. Salbiy tomonlari: ta`sirga beriluvchan, engiltabiat, maishatga o`ch, ig`vo va g`iybatlarni tarqatishda ishtirok etadilar.

Introversiv tip - **uning** boshqalardan farqli tomoni shundaki, ular o`ta iymonuvchan, haqiqiylikdan yiroqlashuvchan, o`z tuyg`ularini oshkor etishni xohlamaslik, faylasuflik qilishga intilishlari bilan xarakterlidir. Bunday odamlar yolg`izlikni yoqtiradilar, atrofdagilar bilan kam nizoga borib, qachonki ularning shaxsiy hayotlariga aralashgandagina atrofdagilar bilan ixtilofga boradilar. Ularda qat`iyatlilik, prinsipiiallik kabi ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda qaysarlik, fikrlashning torligi, o`z g`oyalarini o`ta qat`iyatlilik bilan himoya qilish kabi salbiy xislatlar mavjud. Ular har bir narsaga o`z nuqtai nazarlari bilan qaraydilar, boshqalarning fikrlaridan o`z fikrlarini ustun qo`yadilar.


Xarakter - shaxsning bir tomoni, lekin bu shaxs degani emas. Ekstremal vaziyatda yoki shunchaki tanlash vaziyatida qoldirilgan kishi holatlardan ustun bo`lishga, shu jumladan, o`z xarakteridan ham yuqori ko`tarilishga qodirdir. Kishining istalgan, shu jumladan, ichki, psixologik holatlarga qarshilik qilish qobiliyati uning o`zini o`zgartiradigan qudratli kuchi borligini, uni shaxs sifatida rivojlantirish negizini namoyish qiladi. Shuning uchun kishini xatti-harakatlarini tushuntirishga, uning xulq-atvorini oldindan aytib berishga har qancha urinishlar prinsip jihatidan o`zil-kesil bo`lishi mumkin emas, chunki shaxs bunday tushuntirishlarni qadrsizlantirishi, ularga qarshi harakat qilishi va boshqacha bo`lib qolishi mumkin, ya`ni faqat tashqi va ichki holatlarga muvofiqligi foydasigagina emas, balki o`zi ijtimoiy va umuminsoniy jihatdan qo`llanilishi foydasiga tanlash o`tkaziladi. Shaxs bunga qay darajada qodirligiga qarab, unda konkret-xarakterologik emas, balki ijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlari yo`zaga keladi.

Qobiliyatlar va ularning turlari.

Qobiliyatlar - shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarni, osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishni ta'minlaydigan yakka psixologik xususiyatlaridir.

Inson qobiliyatlar yordamida bilim, ko'nikma va malakalarini nisbatan osonlik bilan egallab oladi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Qobiliyat turlari quyidagilar:



Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lgan kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiynalmay qo'yadilar.

Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi.

Insonning qobiliyatlari uning mayllari bilan maxkam bog'liqdir. Shuning uchun biror narsaga qiziqish, unga berilish ko'pincha faoliyatning ana shu turiga bo'lgan qobiliyatlarning mavjudligidan darak beradi.


Layoqat nishonlari va qobiliyat. Ko'pgina olimlari qobiliyatlar tug'ma bo'ladi va avloddan-avlodga o'tib turadi, deb hisoblaydilar. Unchalik qobiliyatli bo'lmagan ko'pchilik kishilar orasida layoqatli kishilar oilalari kam bo'ladi, bu oilalardagi kishilarnig qobiliyatlari avloddan-avlodga o'tib keladi. Lekin qobiliyatlar to'g'risida bunga butunlay qarama-qarshi bo'lgan nuqtai nazar ham mavjud, bu nuqtai nazar tug'ma sifatlarni butunlay inkor qiladi va hamma narsa tarbiyaga, shart-sharoitga bog'liq deb hisoblaydi. Ana shu nuqtai nazarni ham to'g'ri deb hisoblab bo'lmaydi. Qobiliyatlar

miya va sezish organlarining tuzilishiga bogʻliq, ular har-xil kishilarda tugʻilgan vaqtdayoq turlicha boʻladi. Har bir kishida tugʻma **layoqat nishonlari** bor boʻladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga boʻlgan muayyan moyillik ana shunga bogʻliq. Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning toʻla-toʻkis shart-sharoitlari boʻla olmaydi. Layoqat nisholarini rivojlantirish kerak, bu esa taʼlim tarbiya jarayonidagina roʻy beradi. Bundan tashqari, layoqat nishonalari koʻp qiymatlidir, yaʼni tegishli sharoitlar mavjud boʻlganda faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Layoqat nishonlari kishining goʻyo «mudrab yotgan» kuchlari boʻlib, agar kishi tegishli faoliyat bilan shugʻullanmasa, bu imkoniyatlarni «uygʻotishi» mumkin emas. Bunday mashgʻulotlar uchun ijtimoiy shart-sharoit: moddiy taʼminot, muhit, oʻqish imkoniyatlari va hokazolar zarur boʻladi. Qulay sharoitlar mavjud boʻlganda ayrim kishilarda qobiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy sanhatga boʻlgan layoqat unda ertaroq paydo boʻladi. Kishilarda musiqa va tasviriy sanhatga boʻlgan layoqatdan bir muncha keyinroq adabiy qobiliyatlar paydo boʻlgan. Qobiliyatni rivojlantirishning ayrim shartlari. Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Shuning uchun qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - **faoliyatga boʻlgan ehtiyojni tarbiyalashdir**. Ishlashni yoqtirmaydigan dangasa kishilarda qobiliyatlar rivojlanmaydi. Qobiliyatlarni rivojlantirish uchun jiddiy mehnat qilishning ahamiyati katta. Qobiliyat - avvalo sabr-toqatga koʻpaytirilgan mehnat, mehnat va yana bir karra mehnatdir. Mehnatga boʻlgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir. Layoqat bilan qobiliyatni bir-biridan farqlay olish lozim. Layoqat bu odamni faoliyatga boʻlgan intilish, qobiliyat esa ushbu faoliyatni bajara olish imkonidir.

Qobiliyatlar - bu:

- insonni individual xususiyati;
- inson biron faoliyatga boʻlgan yaroqligi;
- ushbu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shugʻullanishidir.

Qobiliyatlarni sifat faoliyatda oʻz imkoniyatlaridan toʻlaroq foydalana olishni koʻproq yutuqlar erishishni koʻrsatib beradi. Qobiliyatlar strukturasi yetakchi, tayanch xususiyatlar strukturasi yetakchi, tayanch xususiyatlar farqlanadi.



Biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan qobiliyatlar birikmasi - **talant** deb ataladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli bo'lgan kishilarni talantli kishilar jumlasiga kiritish mumkin. Talantlilikni yuqori bosqichi **geniallik** deb ataladi. Ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san'at va shu kabi sohalarda prinsipial ravishda yangi bo'lgan biror narsa yaratgan kishilar geniylar deb hisoblanadilar.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil qiladi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui - **iste'dod** deyiladi.

Qiziqishlar qobiliyatlarni rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Faoliyatga bo'lgan qiziqishni motivatsiya orqali qo'llab-quvvatlash faoliyat maqsadini odam uchun aktual ehtiyojga aylantiradi.

Qobiliyatlarni tarkib topishi va rivojlanishi – bu ko'nikmalarni natijasi bo'lib, ular qancha mustahkamlansa rivojlanish shuncha tez boradi.

Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo'qmi, bo'larning hammasi ko'plab sharoitlarga borliq bo'ladi. Shart-sharoitlar jumlasiga, quyidagilar kiradi: tevarak-atrog'dagi odamlar kishining bu bilim va malakalarni egallab olishdan mang'aatdor bo'ladimi yo yo'qmi; unga qanday ta'lim beradilar, ana shu malaka va ko'nikmalar kerak bo'ladigan va mustahkamlanadigan mehnat faoliyati qanday tashkil etiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

- 1.Temperament tushunchasini ta'riflab bering.
- 2.Temperament xususiyatlariga nimalarini kiritish mumkin?
- 3.I.P.Pavlov ta'limotida oliy nerv faoliyatining asosiy turlari haqida ma'lumot bering.
- 4.V.S.Merlin bo'yicha temperamentning psixologik tasnifiga ta'rif bering.
- 5.Temperament tiplarini sanab o'ting hamda izohlang.
- 6.Xarakter va uning xususiyatlari haqida qanday tushunchaga egasiz?
- 7.Xarakterning belgilari haqida nimalarni bilasiz?
- 8.Xarakter strukturasi va tipologiyasi haqida ma'lumot bering.
- 9.Xarakter aksentuatsiyasi va uning tiplari nima?
- 10.Qobiliyatlar haqida tushuncha bering.
- 11.Qobiliyat turlarini izoxlab bering.
- 12.Iste'dod, talant va geniallik tushunchalari haqida ma'lumot bering.
- 13.Qobiliyatning tug'ma va orttirilgan sifatlari ?
- 14.Qobiliyatlarni rivojlanishi uchun ta'sir etuvchi omillar.

4-MAVZU: PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. TIBBIYOTDA PEDAGOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Reja:

1. Pedagogika fanining maqsadi, predmeti, va ob’ekti.
2. Pedagogikaning vazifalari va asosiy kategoriyalari.
3. Pedagogika fanining tadqiqot usullari, tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Pedagogika fani, uning vazifalari va ularni rivojlantirishda o‘zbek va chet el olimlarining o‘rni.
5. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o‘rni va ahamiyati.

Tayanch so‘zlar: *pedagogika, maqsad, vazifa, ob’ekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, kategoriyalari, tadqiqot usullari.*

Mashg‘ulotning o‘tkazilish joyi: auditoriya

Mashg‘ulotning jihozlanishi: texnik va didaktik vositalardan iborat.

Mashg‘ulotning davomiyligi: 80 minut

Mashg‘ulotning maqsadi: Talabalarda pedagogika fanining maqsadi, predmeti, ob’ekti, vazifalari va asosiy kategoriyalari hamda pedagogika fanining tadqiqot usullari, tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqasi va mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohatlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Fanlararo bog‘liqligi: Falsafa, psixologiya, o‘zbekiston tarixi, huquqshunoslik, sotsiologiya, iqtisod, axborot texnologiyalari, pedagogikaning tarmoqdosh fanlari.

Motivatsiyasi: Talabalarda pedagogika fanining maqsadi, predmeti, ob’ekti, vazifalari va asosiy kategoriyalari hamda pedagogika fanining tadqiqot usullari, tarmoqlari, boshqa fanlar bilan aloqasi va mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohatlar haqidagi bilimlarni shakllantirish orqali kompetensiyaviy yondashuv rivojlanadi.

Nazariy qism.

1. Pedagogika fanining maqsadi. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paida – “bola” va gogike – “yetaklayman”) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsad asosida yosh avlodni tarbiyalash qolaversa, unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni yurtimizning milliy istiqlool g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogika - ta’lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o‘rganadigan fan sohasi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika ya'ni ta'lim nazariyasi hamda ikkinchisi tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos "o'rgatuvchi", didasko "o'rganuvchi") ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qiyuvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, texnologiyalari uni tashkil etish kabi jihatlarini o'rgatadi.

Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining ob'yekti - yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogika fanining predmeti - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini, progressive rivojlanishini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining aniqlanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi undagi qonuniy me'yoriy-hujjatlar, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni, yetuk shaxslarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'ot xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish kabi muhim vazifalarni hal etadi. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega hisoblanadi. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish kabilardir.



Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmuidir.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqatidir.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shaklidir.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmuidir.

Shakllantirish - shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayonidir.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini namoyon etuvchi murakkab jarayon.

Ta'lim to'g'risidagi qonunining 3-moddasida ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'luqli bo'lgan quyidagi asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasasidir;

davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmuidir;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablardir;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasidir;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomidir;

nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs hisoblanadi;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi;


ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda

inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti va hududidir;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash



2-rasm. Pedagogika fanining asosiy vazifalari

bo'yicha davlat nazoratining asosiy shaklidir¹.

3.Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi.

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga oid yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Pedagogika fani metodologiyasi – jamiyatning rivojlanishi sharoitida uzluksiz taraqqiy etib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aks ettiruvchi,

¹ 673-sonli, Ta'lim to'grisidagi Qonun

pedagogika nazariyasi hamda amaliyoti, ta'lim olish hamda unga yondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obykti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning umumiy ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish, tahlil qilish va bilish usullaridandir.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon hisoblanib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq qilib belgilanganligi; ilmiy gipotezalarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi yuzasidan to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan yondashuv; tajriba-sinov ishlari jarayoniga tanlangan respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashhishlash va uning so'ngi hulosasini; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga, rivojlantirishga hizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda hatoga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun tadqiqotchidan ushbu jarayonlarga ahamiyat berish talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodida pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri va aniq baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) ma'lum bir maqsad asosida suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash borish;
- 3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida oldinda muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishini ta'minlash;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilib borish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitilib, tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha turlarga bo'linadi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar “ha”, “yo'q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir nechta shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi kerak;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmashligi zarur;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi kerak;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi lozim;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbayiga aylantirib yuborilmasligi kerak;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta analiz va sintez qilinishi shart.

Intervyu metodi orqali esa respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu sinaluvchi e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida olib boriladi. Intervyu vaqtida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini, oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiq bo'lib, mazkur metod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi aktivlik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan hatolarini aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini ko'rsatib beruvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) aks etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi va sifat darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Test metodi. Ushbu metod sinaluvchilar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) yuzasidan o'zlashtirilgan nazariy

bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagicha savollardan iborat:

2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy", "to'g'ri", " noto'g'ri" va hokazo kabi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (sinaluvchilar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilab beradilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish vaqtida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Ushbu metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari kuzatiladi:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko'rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha “sinab ko'rish”, “tajriba qilib ko'rish”) metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik shart-sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan sinaluvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash hamda unga o'z bahosini bera olishi zarur.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishi lozimdir. Bizga ma'lumki,

pedagogik hodisa murakkab strukturaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi falsafiy, tabiiy hamda aniq fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa - shaxs har tamonlama rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlarini kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

Etika - shaxs ma'naviyatini taraqqiy ettirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, uni ko'ra bilishi va estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisod - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglash orqali bajarishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Fiziologiya - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni o'rganish uchun yordam beradi.

Gigiyena - o'quvchilarning har tamonlama salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishga nazariy va amaliy g'oyalarni taqdim etadi.

Psixologiya - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni va kognitiv jarayonlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o'rgatish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish hamda ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida uchraydigan ayrim nuqsonlarni bartaraf

etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda yordam beradi.

Pedagogikada tarmoqdosh fanlar. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy, aqliy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika - pedagogikaning ilmiy-kontseptual masalalari va amaliy jihatlari tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonun qoidalar va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish, rivojlantirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamollikga erishish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, qolaversa ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitishga oid masalalarni tadqiq etadi.

Metodika - xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, sara metodlarni aniqlash, tashkiliy shart-sharoitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshirish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti - ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash kabi masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi - oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, oilaning o'ziga hos an'analarini saqlash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi.

Xalq pedagogikasi - xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga oid tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika - qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika - pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadigan, hamda pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lim- tarbiyaga aksiologik ya'ni qadriyatli yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Neyropedagogika - bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi hisoblanib bugungi kunda insonni ong xususiyatlaridan kelib chiqib uni taraqqiy ettirish usullari tadqiq qilinmoqda.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunlikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'yllanadigan xodim muzey pedagogi deyiladi.

Pedagogik antropologiya - falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lim oluvchi uchun eng optimal va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'limning antropologik modeli va ta'xnologiyasini o'rganuvchi fan sohasi.

Pedagogik akmeologiya - barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsnig yetuk rivojlanish cho'qqisi – "akme shaxs" darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va ta'xnologiyasini tadqiq etadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?

2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.

5-MAVZU: TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINING MAZMUN VA MOHIYATI

Reja:

1. Ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari
2. Ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Ta'lim va tarbiya metodlarining o'quv jarayoniga ta'siri.
4. Ta'lim va tarbiya vositalari.
5. Didaktika haqida tushuncha.
6. Ta'limning mazmuni: malaka talablari, o'quv rejasi, dasturi, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar.
7. Ta'limni tashkiliy shakllari.
8. O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.
9. O'qitish jarayoni bosqichlari.
10. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, didaktika, o'qitish, o'qitish jarayoni, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta'lim paradigmalari, ta'lim qoninuyatlari, ta'lim tamoyillari, tashkil etish, shakl, ta'limni tashkil etish shakli, ta'limni tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari, ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari.*

Mashg'ulotning o'tkazilish joyi: auditoriya

Mashg'ulotning jihozlanishi: texnik va didaktik vositalardan iborat.

Mashg'ulotning davomiyligi: 80 minut

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda didaktika haqida tushuncha, ta'limning mazmuni, malaka talablari, o'quv rejasi, dasturi, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ta'limni tashkiliy shakllariga oid bilimlarni shakllantirish.

Motivatsiyasi: Talabalar ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari, ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim va tarbiya metodlarining o'quv jarayoniga ta'siri, ta'lim va tarbiya vositalarini amalda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lib hamda didaktika haqida tushuncha, ta'limning mazmuni, malaka talablari, o'quv rejasi, dasturi, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ta'limni tashkiliy shakllarini haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar.

NAZARIY QISM

Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanib jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya talqin etilgan holatida farqlanib ko'rsatiladi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning keng ma'nodagi talqinida, tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya talqinida esa- pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi. Tarbiya mazmuni deb, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni bo'lib uning o'ziga hos xususiyatlari quyidagichadir: maqsadga yo'naltirilganligi, ko'p qirrali jarayon, uzoq muddat davom etishi, uzluksizligi, yaxlitligi, variativligi, natijalarning oldindan aniqlanmasligi, ikki tomonlamalilik kabilardir.

Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar hisoblanadi. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari quyidagilardan iborat:



ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi

masalasi;

✚ tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi holati;

✚ faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarni shakllantirishning negizi va asosiy manbai;

✚ tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish holati;

✚ tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivlik holati;

✚ tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensiv hususiyati;

✚ tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni inobatga olish kabilardir.

Tarbiya tamoyillari deganda, tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalaridir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida ta’lim-tarbiya jarayoni boshqarilib boriladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi masalasi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi holati;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqlik jarayoni;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) sifatida yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish masalasi;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib

uyg‘unlashtirish;

➤ o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birlashishi;

➤ tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;

➤ tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligini inobatga olish.

Hozirgi vaqtda o‘zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko‘proq ob’yektiv va qulay metodlar qo‘llanilib boriladi. Ana shunday tavsif bilan bog‘liqlikda tarbiya metodlari quyidagi uch guruhga bo‘linadi:

• Shaxs ongini shakllantiruvchi usul va metodlar.

• Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish usul va metodlari.

• Xulq-atvorni va faoliyatni rag‘batlantirish metodlari usul va metodlar.

Shaxs ongini shakllantirish metodlari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlari, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari hisoblanadi.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna kabi usullardir.

Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig'indisidan iborat hisoblanadi.

E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bildirib, uning shakllanishi bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiya asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish mumkin.
--

Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettiriladi. Boshqacha qilib aytganda, u aqliy faoliyat mahsulidir. Eng qizig'i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha insonlarga xos jarayondir. Falsafiy, pedagogik, psixologiyk adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko'rsatiladi: mantiqiy; abstrakt(mavhum); umumlashgan; nazariy; texnik; reproduktiv; ijodiy(produktiv); tizimli; kategorial; induktiv; deduktiv; algoritmik; tanqidiy; mustaqil kabilardir.

Ma'naviy-axloqiy motivasiyani hosil qiluvchi metodlar. Bu guruh metodlaridan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, tarbiyalanuvchi xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalaniladi. Bunda koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, tahsinlash, tergash, uyaltirish, shavqlantirish kabi usul va metodlardan foydalaniladi. Koyish – jazo berishning yengil usulidir. Tarbiyalanuvchiga tanbehlovchi so'z aytish, tanbeh berish, urishib qo'yish usulidir. Maqtash – tarbiyalanuvchini uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirish, yaxshi qilib ko'rsatish usuli hisoblanadi. Taqdirlash – tarbiyalanuvchini qadrlash, munosib baholash, tarbiyalanuvchiga uning qadri bor ekanligini sezdirish usulidir. Ta'qiqlash – tarbiyaviy maqsadda tarbiyalanuvchiga, tarbiyalanuvchiga biror narsani man etish holati hisoblanadi. Tahsinlash – tarbiyalanuvchini “ofarin”, “balli” kabi so'zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash metodidir. Tergash usuli – vaqti-vaqti bilan tarbiyalanuvchiga yetarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya xatti-harakatlari uchun koyib, “yo'li” dan qaytarib turish. Uyaltirish – noma'qul qilg'i uchun tarbiyalanuvchiga o'ta noqulaylik tug'dirish, xijolot

qildirish usuli . Shavqlantirish – tarbiyalanuvchining hulqi, muvafaqqiyatlari, kelajagiga g'oyat mamnunlik hissi bilan qiziqish, ruhiy ko'tarinkilik bilan zavqlanish, zavqlantirish, qanoatlantirish kabi muhim hisoblangan usullardan hisoblanadi.

Didaktika Pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari, tamoyillari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasi "ta'lim nazariyasi" ma'nosini bildiradi. Didaktika "yunoncha" dan olingan bo'lib, "didacticos" - o'rgatish, o'qitish degan ma'nosini anglatadi.

Didaktika - ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy-nazariy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida bir sohasidir.

Bu atamani dastlab nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan bo'lib uning "Didaktika yoki ta'lim san'ati" (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk marotaba Ya.A.Komenskiy tomonidan asoslab berildi. 1657-yilda u chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy "hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati" deb tushuntirdi. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" (1657-yil) asarida to'liq ilmiy-nazariy yoritilgan.

Pedagog – olimlar yillar davomida ta'lim tizimida *Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? Qayerda o'qitamiz?* kabi savollarga javob axtarganlar. Didaktika "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?", "qayerda o'qitish?", "qanday o'qitish?" kabi savollarga javob bera oldi.

Ushbu holatga asosan 1990 yillarning o'rtalarida ta'lim-tarbiya sohasiga oid teoriyalar va ularning asoschilari, o'sha davr amaliy darslari va o'qitish tarixi, talqin qilish kabilar bevosita ta'sir ko'rsatdi. Men o'z hamkasblarimga qarata o'zida "qanday o'qitish" kabi savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'llanmalar avval ham, xozir ham ta'lim jarayonida asosiy ustun bo'lib kelgan va talabalar, izlanuvchilarga amaliy maslahat ko'rsata olgan deb ayta olaman.²

Didaktikaning ob'ekti - o'sib kelayotgan yosh avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turiga oid ta'lim berishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchilarning bilish faoliyati), ularning o'zaro hamkorlikdagi harakati namoyon bo'ladi.

²Aleks Muur. Ta'lim berish vata'lim olish: Pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutlej. Ikkinchi nashr. 2012. – B. (Ikkinchi nusxa uchun so'z boshida).

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini rivojlantiriladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor bersak. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy ma'naviy-moddiy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda o'z vazifasini bajaradi. Didaktika o'qitishning umumiy qonun-qoidalarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari deb- pedagogika faniga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija kabi ta'lim nazariyasining muhim tushunchalaridir.

O'rgatish - o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati hisoblanadi.

O'rganish - anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakatidir.

Ta'lim - o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimidir.

Bilim - ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisidir;

Ko'nikma - egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallashdir.

Malaka - avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasidir.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqatidir.

Maqsad - o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi haqida aniq tassavurga ega bo'lishdir.

Mazmun - o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimidir.

Tashkil etish - qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim eta olish, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl - o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantiq'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) samarali yo'li.

Vosita - o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan turli hildagi ob'ekt.

Natija - o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlikning yuqori darajasi.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya sifatida pedagog olimlar tomonidan aytiladi.

Paradigma - aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariyadir.

Ta'limning keng tarqalgan beshta paradigmasi anilangan bo'lib ular: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi); ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

O'qitish (didaktik) jarayonining mazmun mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq anglash mumkin: $DJ = M + A_{o'f} + A_{o'fb}$ Bu yerda:

DJ - didaktik jarayon sifatida.

M – motivatsiya sifatida.

$A_{o'f}$ - o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi sifatida.

$A_{o'fb}$ - o'quvchilarning billish faoliyatini boshqarish sifatida.

O'qitish jarayoni uchta asosiy vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining ta'limiy vazifasi o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, tizimlili, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyatni hosil qiladi. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligi bilan ifodalanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning tarbiyaviy vazifasi ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida ko'rinadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida namoyon bo'ladi. O'qitish jarayonida tarbiyaning muhim ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligida aks etadi.

O'qitishning rivojlantiruvchi vazifasida esa o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellectual sohalarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, ob'ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari o'ziga hos ahamiyati. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, pastdan yuqoriga rivojlanish ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan o'z ichiga oladi:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish lozim;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi kerak;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi kerak;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).


Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati o'ziga hos xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ifodalaydi.

O'rganilayotgan materialni tushunib olish. O'rganilayotgan ob'ekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, sekin-asta chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davomiy bo'ladi. O'qitishning bu bosqichi maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda mustaqil bajarish(kompetensiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

Inson faoliyatining hayoti davomida hamma turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan chambarchas bog'langan. O'qitish orqali tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mazmun va mohiyati - bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmun va mohiyatini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.



4-rasm. O'quvchilarning bilish faoliyati ko'rsatkichlari

Ta'limni tashkil etish shakli deb – o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi holatdagi ifodasidir.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari kabilardir. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi jihatlariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; sinf-dars; ma'ruza-seminar.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimiy shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona shakl bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning

individual-guruhli shakli egallashiga, tarqalishiga imkon berdi. Ulardan biri bolalarning guruhli (jamoali) ta'limi hisoblanadi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) birodarlik maktablarida dastlab qo'llanilgan va u sinf-dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Individual-guruhli, sinf-dars tizimlari XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi muhim bo'lgan tushunchalarni kiritdi. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng tarzda ommaviy qo'llanilib kelinmoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatiga egalik; 2) aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib, analiz va sintez qilib borishga imkon berishi.	1) vaqtning tejimli emas; 2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirish uchun ko'p vaqt talab qilinadi); 3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanib qolganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi); 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmaganligi.

Afzalliklari	Kamchiliklari
---------------------	----------------------

1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizimning mavjudligi; 2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; 3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsa olishi; 4) ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchi-larning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitlarning yaratilishi; 5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning doimiyliги va ketma-ketligi.	1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi; 2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; 3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, hamda, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi; 4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar ba'zi holatda qaror topmasligi.
---	--

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli paydo bo'ldi (AQShda Batov, Yevropada Mangeym tizimi).

Yevropa va AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinovdan o'tkazilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan ilk bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirib keldi. Uni ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham nomlaydilar.

Tarixda birinchi universitetlar paydo bo'la boshlashi bilan ta'limning ma'ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali bugungi kungacha deyarli katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari, konsultatsiyalar va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksiya-seminarlar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy ta'lim va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli hisoblanib unda bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt ichida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay, mo'tadil sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega hisoblanib, bunda: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham namoyon bo'ladi).

Darsning turlari va tuzilishi quydagichadir:

- Aralash dars tipi (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish dars tipi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash dars tipi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dars tipi.
- Laboratoriya darslari tipi
- Amaliy darslar tipi.

Aralash darsning tuzilishi quydagicha:

- a) tashkiliy qismdan;
- b) o'tilgan mavzuni takrorlab borish (uy vazifasini tekshirish);
- v) yangi mavzuni bayon qilish orqali;
- g) o'rganilgan materialni mustahkamlash orqali;
- d) o'quvchilarni baholab borish;
- e) uy vazifasini berish orqali.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilish tarkibi:

- a) tashkiliy qismi;
- b) yangi mavzuni bayon qilishi;
- v) o'rganilgan materialni mustahkamlashi;
- d) uy vazifasini berishi.

O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilish holati:

- a) tashkiliy qismi;
- b) o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazishi;
- v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarishi;
- g) o'quvchilarni baholab borish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilish strukturasi:

- a) tashkiliy qismi;
- b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takroriy olib borish (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o'tkazib borish;
- g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi holati:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlanishi;
- v) laboratoriya ishini o'tkazib borish;
- g) o'quvchilarni baholab borish;
- d) uy vazifasini tekshirib borish.

Amaliy darslarning tuzilishi holati:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlab borish;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarib borish;
- g) o'quvchilarni baholab borish;
- d) uy vazifasi berish va tekshirish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy vazifalarga erishishga yo'naltiriladi: **o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish**. Ana shularni inobatga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar yuzaga keladi.

Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalari hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillaridir.

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillari quyidagicha: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi kabi tamoyillaridir.

Ta'limni insonparvarlashtirish orqali esa - uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash

orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga oid yo'naltirishdir.

Skinning nazariyasi nafaqat guruhning yuqori darajada ijobiy ko'tarinkilikning muhimligiga, balki o'quvchilarning tashqi tarafdin qo'yilgan maqsadlariga qadam va qadam intilishlari uchun yuqori strukturaviy materiallardan foydalanishlariga ham alohida urg'u beradi. chunki Skinner hato qilish haqida quydagicha fikr yuritadi, tushkunlikka solish yoki istakni so'ndirish, o'quvchilarning o'quv jarayonlariga xalaqt berishi xato, u bu kabi materiallar ehtimollikdan imkon qadar uzoq, xatolikdan holi bo'lishining tarafdoridir. O'ta strukturalashgan, ya'ni "stsenariylashtirilgan" – o'qituvchilar tilida oldindan belgilab qo'yilgan va kamdan-kam sezilarli tarzda og'ishgan dars shakli aniq belgilab qo'yilgan qolipga bog'liq bo'ladi. Ba'zan buni keng tushinish mumkin, bugungi kunda muhokamali mavzu "an'anaviy" tarzda dars tashkillashtirish, ya'ni o'qituvchi boshlashi (bunga, masalan, belgilab olingan savollarni so'rash yoki oddiy qo'llanmani taqdim qilish), o'quvchi javob berishi bo'lib qolmoqda saqlanib qolmoqda.³

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar o'rin olgan: ta'limning tizimliliigi va izchilligi; ta'limda ongliiik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarlilik.

Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb aytgan. Unga binoan ta'limda inson sezgi orgalaridan foydalanish zarur bo'lib "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak - deb ta'kidlaydi u - agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin".

Tajriba-sinovlar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshirib beradi. Axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa - 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi esa 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida o'z me'yorida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash,

³ Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 3-4 betlar.

mashqlarni olib borish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Didaktik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog'liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterlidir. Ulardan eng muhimlariga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim metodlari tasnifi:

An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

Og'zaki	Ko'rga zmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Vide o-metod
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma'ruza Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish, O'rganish , Nazorat qilish

O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).

Ta'lim metodining nomlanishi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
Axboriy-retseptiv	O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan ob'ekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini

	tuzish va taqdim etish	egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchi likka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov):

- Yangi bilimlarni egallash metodlari haqida;
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari haqida;
- Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari haqida.

Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi

(Yu.K.Babanskiy):

O'rgatish metodlari	O'rganish metodlari
----------------------------	----------------------------

Axboriy-ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

- O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

O'rganilayotganlari o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlari i fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tuzulmasi tushuniladi.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar shu jumladandir.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi **funktsiyalarni** bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlay oladi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlab beradi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlay oladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tarbiya mazmuni deganda nima tushiniladi?
2. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalarini bayon eting.
3. Tarbiya jarayoni qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
4. Tarbiya qonuniyatlarini shrhlab bering.
5. Tarbiya tamoyillarini izohlang.
6. Keng va tor talqindagi tarbiya tushunchalariga izoh bering.
7. Tarbiya metodi, usuli va vositasi tushunchalariga ta'rif bering.
8. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.
9. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
10. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
11. Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlarini qo'shimcha manbalardan o'qib to'ldiring.
12. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning ob'yekti va predmetini izohlang.
13. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.

14. Zamonaviy ta'lim paradigmalariga nimalar kiradi?
15. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
16. Hozirgi vaqtda ta'limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
17. Ta'limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
18. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
19. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.
20. Dars deb nimaga aytiladi?
21. Darsning qanday turlari mavjud?
22. Darsga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
23. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
24. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllariga nimalar kiradi?

II.AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI,MAQSAD VA VAZIFALAR,TADQIQOT METODLARI (4-SOAT)


Режа:

1. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Psixologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari.
3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.
4. Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari
5. Psixologiya fanining tarmoqlari

Tayanch so'z va iboralar:

Psixologiya, rux, aks ettirish, psixika, Aristotel, refleks, jarayonlar, individual xususiyatlar, vazifalar, psixik holatlar. prinsip, determinizm, ong, faoliyat, amaliyot, nazariya, soha, ijtimoiy psixologiya, tadqiqot, psixik taraqqiyot Inson omili, ilmiy psixologiya, inson ruhiy dunyosi, psixika, psixik hodisalar, psixik xolatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, eksperimental psixologiya, kognitivizm, bixeviorizm, neobixeviorizm, geshtaltpsixologiya, interaksionizm, gumanistik psixologiya, freydizm, neofreydizm.


Psixologiyaning asosiy nazariy manbalarini yoritib bering.



Ushbu tushunchalarning mazmunini yoritib.

Psixologiya, jamiyat, oila, psixika, ong, individual xususiyatlar, psixik holatlar, psixologiya tarmoqlari, psixik metodlar, guruh turlari kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasi, shaxsni kasb psixologik o'rganish, ommaviy ijtimoiy psixologik hodisalar, ijtimoiy tasavvurlar.

Psixologiya fanining vazifalari:



№	Tushuncha	Bilim	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
		Bilmayman “-”.	
1	Psixologiyaning yo‘nalishlari		
2	Kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasi		
3	Shaxs –psixologiyaning o‘rganish ob’ekti sifatida		
4	Psixologiya faniga hissa qo‘shgan olimlar		
5	Psixologik tadqiqot metodlari		

3x4 oranayzerini to‘ldiring

Fanning asosiy mazmunini ochib berishga yordam beradi va “3x4” texnologiyasi orqali talabalarni mavzu yuzasidan tushuncha, tasavvurlari aniqlanadi.

Psixologiya –bu

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

<i>Savol</i>	Psixologiya va Ijtimoiy psixologiya fanlar o'rtasidagi aloqadorlikni tushuntiring?
<i>-fikringizni bayon eting</i>	
<i>S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</i>	
<i>M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring</i>	
<i>U- fikringizni umumlashtiring</i>	

F-fikringizni bayon eting
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
U- fikringizni umumlashtiring

1-guruh

2-guruh

<i>Savol</i>	Psixologiya fani nima uchun alohida fan sifatida o'rganiladi?
<i>F-fikringizni bayon eting</i>	
<i>S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</i>	
<i>M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring</i>	
<i>U- fikringizni umumlashtiring</i>	

Klaster usullaridan foydalanamiz. Buning uchun doskani uchta qismga bo'lib qo'yiladi:

<i>Psixika</i>	<i>Ong</i>	<i>Insoni y muomala</i>

Shu tarzda guruh a'zolarini ham uch guruxga bo'lamiz. Birinchi guruxga birinchi ustunni to'ldirishni, ikkinchi guruxga ikkinchi ustunni, uchinchi guruxga uchinchi ustunni to'ldirish vazifasi beriladi.

o'quv topshiriq

T-chizma grafik organayzerlari

Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlariga doir muammoli masalalarni echimini topishga yordam beradi va "T-chizma" usuli orqali muammo hal qilinadi.

1)

Kuzatish metodining afzalligi	Kuzatish metodining kamchiliklari

2)

Eksperiment metodining afzalliklari	Eksperiment metodining kamchiliklari

3)

Suhbat metodining afzalliklari	Suhbat metodining kamchiliklari

Mavzuga oid testlar:

1. Psixologiya fani nimani o'rganadi?
 - A) idrok qilish shakllarini
 - B) jon va ruh haqidagi talimot
 - V) ruxiy jarayonlar bilish faoliyatlari, individual psixologik xususiyatlarni
 - G) psixik faktlar va uning mexanizmlari qonuniyatlari haqidagi fan*
 - D) inson shaxsi uning psixologik xususiyatlarini
2. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iboratligini ilgari surgan olim?
 - A) Geraklit*
 - B) Demokrit
 - V) Aflotun
 - G) Arastu
 - D) Fales
3. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon atomdan iboratligini ilgari surgan olim?
 - A) Geraklit
 - B) Demokrit*
 - V) Aflotun
 - G) Arastu
 - D) Fales
4. Kishilik tafakkuri tarixida kim birinchi bo'lib ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi?
 - A) Aflotun
 - B) Anakseman
 - V) Arastu*
 - G) Geraklit
 - D) Fales
5. «Jon qismlarga bo'linmaydi lekin u faoliyatning oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarni namoyon qiladi» mazkur fikr kim tomonidan ilgari surilgan?
 - A) Aflotun
 - B) Anakseman
 - V) Arastu*
 - G) Geraklit
 - D) Fales
6. Dunyoda kim birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llagan?
 - A) Aflotun
 - B) Arastu
 - V) Abu Ali ibn Sino*
 - G) Abu Nasr Farobiy
 - D) Abu Rayxon Beruniy
7. Inson miyasining funksional tuzilishini o'rgangan olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?
 - A) I.P. Pavlov
 - B) I.M. Sechenov
 - V) A.R. Luriya*
 - G) M. Teplov
 - D) Neblitsin

8. «Bosh miya reflekslari» asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) I.P.Pavlov
 - B) I.M.Sechenov*
 - V) A.R.Luriya
 - G) M.Teplov
 - D) Neblitsin
9. «Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari o'zining yuzaga kelishi jihatidan reflekslardan iboratdir» mazkur fikr muallifi va kitobning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) I.M.Sechenov «Bosh miya funksiyalari»
 - B) I.P.Pavlov «Bosh miya reflekslari»
 - V) I.P.Pavlov «Oliy nerv faoliyati qonuniyatlari»
 - G) I.M.Sechenov «Refleks va reflektor yoyi»
 - D) I.M.Sechenov «bosh miya reflekslari»*
10. Psixik jarayonlar organizmda qanday funksiyalarni bajaradi?
- A) aks ettiruvchanlik
 - B) signalilik
 - V) boshqaruv
 - G) psixik
 - D) aks ettiruvchilik, signallik, boshqaruv*
11. Psixik faoliyatning ruhiy jihatdan boshqarilishi reflektor xarakterga ega ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surgan psixolog olim qaysi qatorda ko'rsatilgan?
- A) I.P.Pavlov
 - B) I.M.Sechenov*
 - V) A.R.Luriya
 - G) M. Teplov
 - D) Neblitsin
12.psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir.
- A) psixika
 - B) ongsizlik
 - V) ong*
 - G) amaliy tafakkur
 - D) to'g'ri javob yo'q

2-MAVZU: SHAXSNING PSIXIK BILISH JARAYONLARI:DIQQAT,SEZGI,IDROK, XOTIRA, TAFAKKUR (4-SOAT)

REJA :

- 1.Diqqat turlari va xususiyatlari
- 2.Sezgi turlari , ularning inson hayotidagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlari
- 3.Idrokning umumiy ta'rifi va uning fiziologik asoslari
- 4.Xotira turlari va uning qonuniyatlari
- 5.Tafakkur haqida umumiy tushuncha.

Asosiy tayanch tushunchalar

Diqqat, parishonxotirlik, taktil sezgi, senisteziya, sensibilizatsiya,

adaptatsiya, sezgi ,idrok, konstantalik, appertsepsiya, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish

gallyutsinatsiya, illyuziya, xotira, eyditizm, amneziya, paraamneziya, hayol, tasavvur, tafakkur, analiz, sintez

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. Diqqat jarayoni to'g'risida tushuncha bering.
2. Diqqat xususiyatlari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Sezgi jarayoni haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
4. Sezgi turlariga tarif bering.
5. Idrak haqida tushuncha bering.
6. Xotira haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
7. Xotiraning xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Xotiraning qonunlarini tushuntirib bering
9. Gallyutsinatsiya nima?
10. Tafakkur jarayoni to'g'risida tushuncha bering.
11. Tafakkur turlarini tushuntirib berish
12. Eyditizm nima ?
13. Divergent tafakkur nima?
15. Ilyuziya nima?

o'quv topshiriq FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F-fikringizni bayon eting

S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U- fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Kuzatuvchanlikning inson hayotidagi o'rni nimalardan iborat?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Appertsepsiya insonning turmush tarzi bilan bog'liqmi?
	tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi. Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, tayyorgarlik sifati va nisbatan qo'yiladigantalablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.	training base of qualified competitive staff, include all types of education, state educational standards, as well as the structure of the system retraining. Science - training and development of highly qualified specialists using modern educational and information technologies. Production- The need for personnel as well as quality of training and basic requirements of the customer in terms of financial, logistical training system participants.
Ta'lim texnologiyalari	- bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida talaba(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.	Educational Technology - this trainer, education of students affect their particular circumstances, and it will act as a pre-defined intensive process of formation.
Texnologiya	– yunoncha “tehne”, ya'ni “mahorat”, “san'at” va “logos” – “fan”, degan so'zlardan olingan. Uning yordamida manbalarda sifat o'zgarishlar ro'y beradi. Texnologiya - biror ishda, mahoratda, jarayonda, san'atda qo'llaniladigan yo'llar, uslublar to'plamidir (talqinli lug'at).	Technology - is the Greek word "technical," that is the "master" and "Logos" - "science". Changes as sources. Research, technology, skills and techniques used in the process, a set of methods.
Texnologiyani o'rganish –	axborotlarni o'zlashtirish-da ob'ekt haqidagi umumiy ma'lumotlarni bir tizim-ga keltirib axborotga aylantirib olgandan keyin axborotlar orasidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ochish	Learning technology - general information about the development of the information object after receiving information brought into the process and interconnection of between informational laws.

	jarayoni. Ana shu qonuniyatlar axborot-lar yig'ish, tizimlash, qayta ishlash va uzatish kabi bosqichlarni bosib o'tishga to'g'ri keladi va ular orqali rejalashti-rilgan natijalarga erishi-ladi. Bu jarayon axborot-larni o'zlashtirishning texnologik bosqichi deyi-ladi. Asosiy tushunchalar: Innovatsiya, xususiy yangi-lik, diagnostika, qolip-lashtirish, o'qituvchning innovatsion faoliyati, aksiologiya, akmiologiya, kreativlik, refleksiya.	Basic concepts: innovation in the private diagnostics, innovation educational activities, axiology, acmiology, creativity, reflection.
Innovatsiya –	yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayo-ni va faoliyati. (inglizcha <i>innovatsion</i> – kiritilgan yangilik, ixtiro). Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texno-logiya, boshqaruv va meh-natni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va doiralarida qo'llanishini aks ettiradi	Innovation- Updating. Change in process of activity. Updating on the basis of scientific and technical achievements and advanced experience in the field of engineering, technology, management, news, as well as their different reflection.
Konsepsiya –	maqsadga etishishning xomaki rejasi mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich konsepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi.	Concept - the purpose of drawing up the plan with the current legislation in this area is the concept stage
Ixtiro qilish	- ya'ni yangilik yaratish	Invent - the creation of innovation
Ixtiro	– yangicha g'oya, texnik echim bo'lib, amaliyotda texnika-ning istalgan sohasidagi muayyan muammoni hal qilish imkonini beruvchi ijodiy faoliyat mahsuli.	Invention - new ideas and technical solutions, creative product that allows to solve the specific problem.



VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., 2017. – 157b
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustunvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 22b
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., 2017. – 14b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., O‘zbekiston. 2017. – 102 b.
5. O‘zbekiston Respublika prezidenti farmoni. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // Ma’rifat. – T., 2017. – 8-fevral. – 11 -son (8972).
6. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари — тараққиётнинг муҳим омили. Ўзбекистон янги йил арафасида: 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намояндалари билан учрашув // ЎЗА. – Т., 2016

II. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining asarlari:

7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
8. Karimov I.A. “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori // Sharq nashriyoti. – T., 1998. – B. 37.
9. Каримов И.А. Буюк келажакимизнинг ҳукукуий кафолати. – Т.: Шарк нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти, 1993. - 27-28-б. Баркамол авлод орзуси // Нашр учун масъул: Т.Рисқиев. Тузувчилар: Ш.Қурбонов, Х-Саидов, Р.Ахдиддинов. – Тошкент: “Шарк” НМК Бош тахририяти, 1999. - 182 б.
10. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 1999.-73 б. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе и его закономерные основы. — М.: Высшая школа, 1980. - 367 с.

III. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Qonunlari:

11. O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod” – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – Sharq, 1997. – B. 20-29.

13.O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // “Barkamol avlod” – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – Sharq, 1997. – B. 31-61.

14.O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1998 yil, 13may // Ta’lim taraqqiyoti. – 1998. – N1. 77-81b.

IV. Asosiy adabiyotlar

1.Y. A.Komenskiy. “Buyuk didaktika”. M.Ochilov, S. Rajabov tarjimai T.:1985

2.Alex Moore Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture USA, 2012 Routledge Angliyskiy Textbook

3.Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T.: O‘qituvchi, 2006 Darslik

4. M.X.Toxtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika (Bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik) - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 400 b.

5 U.N.Nishonaliyev, O‘.Q.Tolipov, SH.S.SHaripov. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: TDPU, 2007.

6. Kasbiy pedagogika'A.I. Avazboyev [va boshq.]. - T.: Cholpon nomidagi NMIU, 2014. 320 b.

7.A.Зуннунов Педагогика назарияси (Бакалавриатуранинг йуналишлари учун укув кулланма) Т.:2006Б-163

8.Inoyatov.U.I., Muslimov N.A., Ro‘ziyeva D.I., M.,X.,Usmonboeva “Pedagogika (nooliy ta’lim muassasalari uchun darslik) Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi, 2013. – 243b.

9..Теория и практика общей педагогики / Э.Р.Юзликаева, С.Х.Конева Педагогическое мастерство: ст-33-34

10. Azizxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006, -160 b.

11. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod – Moliya, 2011. -418-b.

12.Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /N.X.Avliyaqulov, N.N.Musaeva-Toshkent : CholponNMIU,2012.208 b.

13.B.X.Xodjaev Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017 Darslik

V.Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
2. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.
3. Piskunov A.I., Istoriya pedagogiki i obrazovaniya. M.: TS«Sfera», 2001.
4. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya.-Toshkent. 2002.
5. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'. Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
5. Xasanboev J, To'raikulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
6. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.
7. Boshqalardan farqli bola: parvarishlash va rivojlantirish. Shubina A.B. Toshkent. 2009.
8. Niyozov G', Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
9. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
10. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
11. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-pedagogik asoslari. L.Sh.Nurmuhammedova.-Toshkent. 2014.
12. Maxsus pedagogika. Toshkent.: "Fan va texnologiyalar" 2014.
13. Xalq pedagogikasi. O'quv qo'llanma. M.Mutalipova. –Toshkent, 2015.
- 14..Nutq madaniyati / Rasulov R., Mo'yidinov Q. T.: 2004-yil

VI.Elektron ta'lim resurslari.

- 1.www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.ziyo.edu.uz
5. www.gov.uz
6. www.ziynet.uz
7. www.istedod.uz

V. Xorijiy adabiyotlar.

1. Bodrev, Zazyuka. Основы педагогического мастерства. М.: Просвещение, 1989.
2. Azarov YU.P. Kultura vospitani: Uchitel. М.: Просвещение. 1985.
3. Amonavshen SH.A., Edinstvo seli.. М., Просвещение. 1987.
4. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. – Sankt Peterburg, 2002.
5. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. // Pod. red. V.A.Slastenina. – М.: Akademiya, 2004.

ILOVALAR

1.Fan dastur

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

№ BD - 5320500-2.24

2021 yil "04" iyun



PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

MODUL DASTURI

Bilim sohalari:	500000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohalari:	510000	- Sog'liqni saqlash
	320000	- Ishlab chiqarish texnologiyalari
Ta'lim yo'nalishi:	5320500	- Biotexnologiya (Farmatsevtik biotexnologiya)

Toshkent - 2021

Tuzuvchilar:

- Ismailov K.K.** - Toshfarmi, Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri I.f.n., dotsent
Sultonova L.B - Toshfarmi, Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
Kamalova D.O - Toshfarmi, Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- Mirzayeva F.O** - Nizomiy nomidagi TDPU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası mudiri, PhD, dotsent
Yuldasheva L.S - Toshfarmi Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi F.f.n

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqilgan.

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan 2021 yil "26" maydagi "10" - sonli bayonnoma.

Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'limi muassasalararo Muvofiqlashtirish kengashining 2021 yil "13" apreldagi "3" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil "4" iyundagi "121"- sonli buyrug'ining 1-ilovasi bilan modul dasturi tasdiqlangan.

1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'lim dasturidagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrda PF-5812-son Farmoni ijrosini va O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni 2020-yil 23-sentabrda taqdim etilgan bo'lib unda 11-bob, 75-moddadan iboratdir. Ushbu me'yoriy- hujjatlar kadrlarni kasbiy tayyorlash kompetensiyasini rivojlantirish asosi sifatida xizmat qiladi. Aynan ta'lim tizimini rivojlantirishda oliy ta'limning alohida o'rni mavjud bo'lib undagi kadrlar zamon talabiga mos vazifalarni bajarishda psixologik va pedagogik bilimlarni o'zlashtirishlari zarurdir. Psixologiya va pedagogika fani shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi, shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari va uni amalga qo'llash shakllari, muloqat o'rnatishda psixologik aspektlarni inobatga olish, shaxs psixologik jarayonlari, shaxsning individualligi kabi masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib fanning o'ziga hos vazifalarni bajaradi.

2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. O'quv modulining maqsadi: Psixologiya va pedagogika fanini farmatsevtika yo'nalishi kasb ta'lim yo'nalishining talabalarida o'qitishdan maqsad bo'lg'usi pedagog kadrlarda pedagogik va psixologik bilim, ko'nikma va malakalar qolaversa tayanch, maxsus kompetensiyalar shakllangan mutaxassislarni yetishtirib chiqarishdir.

2.2. O'quv modulining vazifalari: – ushbu kursda belgilangan maqsad asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning quyidagi vazifalarini hal etadi:

- bo'lajak mutaxassislarning Psixologiya va pedagogika kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradi hamda tushuncha va qarashlar bilan qurollanadi;

- ta'lim oluvchilarni milliy mafkura tarbiyasi. Talabaning pedagogik, psixologik bilimlarni rivojlantirish;

- o'qituvchi va o'quvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarga tayyorlanadilar;

- talabalar pedagogik, psixologik foydalanishning nazariy va amaliy asoslari haqida bilimlar bilan qurollantirish vazifasini bajaradi.

2.3. Modul bo'yicha bakalavrlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar.

- "Psixologiya va pedagogika" fanlar tizimi tuzilishi, fanning mohiyati, ularning rivojlanish istiqbollari haqida;

- umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim –tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish;

- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;

- ta'limning pedagogik qonuniyatlari hamda tamoyillariga tayangan holda tegishli qarorlar qabul qilish;

- Psixologiya va pedagogika ning tarmoqlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

- Psixologiya va pedagogika nazariyasi va metodologiyasi aloqalar tizimlar, kategoriyalar, qonuniyatlari, asosiy holatlar;

- pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o'rta davriy istiqbolni ko'zlab maqsad, vazifalarni belgilash;

- Psixologiya fanida psixik holatlar,bilish jarayonlari,va shaxsning individual xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

bilishi va ulardan foydalana olishi;

- Turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda pedagogikaning har xil usullarini qo'llash;

- Talaba psixologik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, psixologik muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish –**ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

II.Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1 Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi.

Psixologiya va pedagogika moduli

1-mavzu. Psixologiya fanining predmeti , maqsad va vazifalari

"Psixologiya" tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Psixika tirik mavjudotning ob'ektiv borliqni aks ettirish shakllaridan biri ekanligi to'g'risida umumiy tushuncha. Psixikaning aks ettirish va boshqaruvchanlik vazifalari. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari. Psixika va ong. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib yetmagan harakatlar) holatlari. Psixologiya va falsafa. Psixologiya fanining nazariy hamda amaliy vazifalari."Psixologiya" fanining tarmoqlari, ishlab chiqarish, ta'lim tizimi,tibbiyot, oila, umuman hayotdagi ahamiyati."Psixologiya" fanining vazifalari, tadqiqot metodlari va ularning ishlab chiqarish, ta'lim tizimi, tibbiyot, oilada qo'llanishi.

2-mavzu. Shaxsning psixik bilish jarayonlari

Shaxsning bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha. Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning fiziologik asoslari. Diqqatning turlari. Diqqatning asosiy xususiyatlari. Parashonlik. Diqqat-e'tiborlilik (ziyraklik) shaxsning fazilatidir.

Bilish jarayonlari. Sezgi. Sezgi turlari, ularning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari. Sezgirlik va uning o'zgarishi. Idrok. Idrokning umumiy ta'rifi. Idrokning yaxlitligi, anglangan bo'lishi, ayrim narsalarga qaratilishi va barqarorligi. Xotiraning umumiy xarakteristikasi va fiziologik asoslari. Xotira nazariyalari. Esda qoldirish, uning shartlari va usullari. Tanish va esga tushirish. Esda saklash va unutish. Xotira turlari. Xotiraning individual farqlari. Tafakkur haqida tushuncha.

Tafakkur turlari. Fikrlash operatsiyalari. Tushuncha, xukm va xulosa chiqarish. Til va nutq tugrisida umumiy tushuncha. Nutqni idrok qilish va tushunish. Nutq turlari. Xayol. Xayol turlari va obrazlar yaratish usullari.

3-Mavzu Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari haqida tushuncha. Temperament. Temperament haqida tushuncha va uning turlari. Temperamentning fiziologik asoslari. Temperament va shaxs. Xarakter to'g'risida tushuncha. Xarakter xususiyatlari. Xarakter aksentuatsiyasi. qobiliyatlar. Qobiliyatlar to'g'risida tushuncha. Layoqat nishonalari va qobiliyatlar. qobiliyat vaintellekt.

4-mavzu: Pedagogika fan sifatida. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati

Pedagogika fani, uning vazifalari va ularni rivojlantirishda o'zbek va chet el olimlarining o'rni. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar. Predmetning ob'ekti va predmetining takomillashganligi. Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyliigi. Pedagogikaning maqsad, vazifalari va asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati.

5-mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.

Istiqlol yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Mustaqillikni qo'lga kiritish arafasida va undan keyingi dastlabki oylarda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohatlar. Ta'limiy islohatlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari. Milliy maktabni tashkil etish muammolari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va ta'lim jarayoniga oid me'yoriy hujjatlar.

Pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Ta'lim tizimida milliy ma'rifiy qadriyatlaridan foydalanish.

6-mavzu: Ta'lim-tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya turlari. Tarbiya qonuniyatlari. Tarbiya qoidalari va tamoyillari: tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi. tarbiyada insonparvarlik va demokratik qoidasi. Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustunvorlik qoidasi. Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi.

III. Amaliy mashg'uloti bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1-mavzu: Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

2-mavzu: Shaxsning psixik bilish jarayonlari

3-mavzu: Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat

4-mavzu: Pedagogika fan sifatida. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati

5-mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Istiqlol yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti

6-mavzu: Ta'lim-tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

3.2.2. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

-talaba muloqot va munosabat to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi.

-muloqotning kommunikativ sohasi va muloqotning perseptiv tomonini;

-muloqot turlari: verbal va noverbal muloqotning ishlatilishiga ahamiyat berishning afzalligi haqida tushuncha hosil qilinishi;

-guruxda o'zaro moslik va psixologik muxitning faoliyatga ta'siri,

-manipulyasiya haqida tasavvurga ega bo'lishini;

-konformizmni aniqlash malakalariga ega bo'ladi;

-muloqot jarayonida mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda umumiy psixologik bilimlarni va qoidalarni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;

-ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari, ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim va tarbiya metodlarining o'quv jarayoniga ta'siri ta'lim va tarbiya vositalari qo'llaydilar;

- boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni,
- shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etishni;
- talaba birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi;
- tashkilotchilik qobiliyatining mohiyatini anglab yetishadi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- 1-mavzu: O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tahlil qilish (Kollej va Oliy ta'lim misolida)
- 2-mavzu: Rivojlangan davlatlarda ta'lim va tarbiya jarayoni (manbalar bilan ishlash)
- 3-mavzu: Pedagogik deontologiya (manbalar bilan ishlash)
- 4-mavzu: Pedagogik mahoratning ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni va ahamiyati (manbalar bilan ishlash)
- 5- mavzu: Interfaol metodlar va ularning mohiyati (manbalar bilan ishlash)
- 6-mavzu: Sharq va G'arb mutafakkirlarining pedagogik qarashlari (manbalar bilan ishlash)
- 7- mavzu: Psixologiya fan sifatida zamonaviy tibbiyot xodimi faoliyatida
- 8-mavzu: Shaxsni idrok qilishda psixologik bilimlarning ahamiyati
- 9-mavzu: Insonga verbal va nonverbal ta'sir
- 10-mavzu: Psixologik iqlimning pahlavarga bogliqligi
- 11- mavzu: Muloqotning samarali tasir vositalari
- 12-mavzu: Shaxsdagi liderlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish
- 13- mavzu: Psixologiyada boshqaruv muammolari.
- 14- mavzu: Boshqaruvda psixologiyasida rahbarlik va liderlik jihatlari.
- 15-mavzu: Kasbiy mahorat sirlari.
- 16-mavzu: Kasbiy faoliyatni tashkil etishda texnika va texnologiyalarning o'rni va ahamiyati.
- 17-mavzu: Ong va ongsizlik holatlari.
- 18-mavzu: Motiv va motivatsiya.

V.Fanni o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- talabalar fanining mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifasi, pedagogik terminlar, kasbiy pedagogik jarayon xususiyatlari va pedagogik tushunchalarni, kasbiy pedagogik jarayon bosqichlarini tashkillashtirishining asosiy vazifalarini, jamiyatdagi kasbiy pedagogik jarayon o'rni, ahamiyati va vazifalarini, fanining dolzarb muammolari va uni bartaraf etish yo'llarini qo'llay oladi;
- talabalar insoniyat rivojlanishi tarixining turli davrlarida kasbiy ta'lim masalalari, Evropa olimlarining asarlarida kasbiy ta'limi, O'rta Osiyo hududida kasbiy ta'lim tizimining shakllanish bosqichlari, O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqidagi fikrlari, O'zbekistonda kasb ta'limini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanadi;
- talabalar ta'lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart- sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik Milliy pedagogik merosga tayanishi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga oid moddalardan pedagogik faoliyatda qo'llaydi;
- talabalar "Uzluksiz ta'lim" tushunchasi, uzluksiz ta'lim tuzulishi, uzluksiz ta'lim tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlashadi va shu orqali kasbiy ta'lim rivojlantiriladi;
- o'qituvchining lavozim vazifalari, o'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar, nazorat va baholash bo'yicha vazifalari. o'qituvchining metodik ishlari, .kasbiy faoliyat va uning ob'ektlari haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahorati haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari, kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi, o'qituvchining pedagogik faoliyati, faoliyat uslubi, usullar, holatlar, shakllar, bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- mustaqil ishlarni baholash o'qitishni tashkil etishda mustaqil ish, kurs ishi, va bitiruv malakaviy ishlarni tashkil etish va ularni bajarishdagi talablar haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, temperament haqida tushuncha va uning turlari, temperamentning fiziologik asoslari, xarakter to'g'risida tushuncha, xarakter xususiyatlari, xarakter aksentuatsiyasi, qobiliyatlar to'g'risida tushuncha, layoqat nishonalari va qobiliyatlar, qobiliyat va intellekt kabi psixologik bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llaydilar.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari, vositalari

- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- Keys echish.
- Grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;
- Krossvordlar tuzish va echish;
- Prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

5.Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish mezonlari

5.1.Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari

Talabalarining modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);

- yakuniy sinov (YaS).

Modulga ajratilgan 2 kredit nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Joriy nazorat uchun 2 kredit quyidagicha taqsimlanadi:

“Psixologiya va pedagogika” tabiiy va ijtimoiy, ilmiy fan sifatida ekanligi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lishlik. Ushbu fanining vazifalari, tadqiqot metodlari va ularning ishlab chiqarish, ta'lim tizimi, tibbiyot, oilada qo'llanishi orqali -0,5 kreditga;

Shaxsning bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari xaqida tushuncha. Temperament. Temperament xaqida tushuncha va uning turlari. Temperamentning fiziologik asoslari. Temperament va shaxs. Xarakter to'g'risida tushuncha. Xarakter xususiyatlari. Xarakter aksentuatsiyasi bilish orqali -0,5 kreditga;

Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar. Predmetning ob'ekti va predmetining takomillashganligi. Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyli. Pedagogikaning maqsad, vazifalari va asosiy kategoriyalari. Pedagogikaning tarmoqlari va boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. Tibbiyotda pedagogik bilimlarning o'rni va ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Ta'lim tizimida milliy ma'rifiy qadriyatlaridan foydalanish-0,5 kreditga;

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya turlari. Tarbiya qonuniyatlari. Tarbiya qoidalari va tamoyillari: tarbiyaning maqsadga qaratilganlik qoidasi. tarbiyada insonparvarlik va demokratik qoidasi. tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorlik qoidasi. Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik qoidasi kabilarni mukammal o'zlashtiradilar 0,5 kreditga ega bo'ladilar.

Joriy nazorat (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Moduli bo'yicha JN og'zaki, testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli matnlar, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal

ball 100, o'tish bali 55 ball.

5.2. Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" – a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda) aniq, o'z o'rnida foydalanishi,	5	a'lo

			savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini xorijiy tilda asoslab bera olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida echishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi; amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (xorijiy tilda) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;	4	yaxshi
71-80	C	"yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	modul dasturining bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; terminologiyadan (xorijiy tilda) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan		

			noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	D	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida etarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni xorijiy tilde hal eta olishi; amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;	3	Qoniqarli
55-59	E	"o'rta" – minimal natijaga teng	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;		
31-54	FX	"qoniqarsiz" – minimal	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;	2	Qoniqarsiz

		daraja-dagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" – to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

YaKUNIY NAZORAT (YaN)

JN va TMIGA ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YaNGa kiritiladi. YaN modul yakunida yozma topshiriqlar shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YaNda saralash ballini (55) yig'olmagan talaba YaNda o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham)

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talabalar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

6. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalar

6.1 O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Yangi tahriri. T. 2020 23-sentyabr.
3. "O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

4. “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25-yanvardagi PF-5313 Farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son.

5.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.

6.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

7.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’naflatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzası. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

8.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

9.Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T. 14. - Toshkent: O‘zbekiston, 2006.

Asosiy adabiyotlar

Darsliklar vao‘quv qo‘llanmalar

IV. Asosiy adabiyotlar

- 1.Y. A.Komenskiy. “Buyuk didaktika”. M.Ochilov, S. Rajabov tarjimasi T.:1985
- 2.Alex Moore Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture USA, 2012 Routledge Angliyskiy Textbook
- 3.Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T.: O‘qituvchi, 2006 Darslik
4. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika (Bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik) - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 400 b.
- 5.Podlasnyy I.P. Pedagogika: Uchebnik. — M.: Vysshee obrazovanie, G 2006.c540
6. Sh.S.Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - T.: “Fan va texnologiya”, 2019, 296 bet.
- 7.Ibragimov X, Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.
- 8.Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T., 2005 yil.
9. Omonov X.T, Xo‘jaev N.X, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.,2009 yil.
10. Tolipov, O‘tkir. Dilnoz Ro‘ziyeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” (O‘quv qo‘llanma)/ - Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 276 b.
11. M.Asqarova,M.Hayitboev S.Nishonov. Pedagogika. Oliy vao‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya etgan (lotin) T.2008y
- 12.B.Ziyomhammedov,Pedagogik mahorat asoslari ,T.2009yil
13. Z.Ibodullaev. “Tibbiyot psixologiyasi”. T., 2008 yil darslik.
14. P.I.Ivanov va M.Zufarova.”Umumiy psixologiya”T., 2008 yil darslik.
15. M.A.Maqsudova.”Muloqot psixologiyasi” .T.; 2006 yil darslik.
- 16.Nishonova va Sh.Asomiddinova. «Psixologik maslahat» .T.2010 yil
17. Ibodullayev Z/ Tibbiyot psixologiyasi/ T., 2012 Darslik

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro‘zieva D.I.Pedagogika. Psixologiya. Darslik. T., 2018 y.
2. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi. Uquv qullanma. «LESSON PRESS» Toshkent, 2017 y. 160 b.
3. A.A.Rean, N.V.Bordovskaya, S.I.Rozum. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov. -SPb.: Piter, 2002. 432 s.
- 4.U.I.Iniyatov,N.A.Muslimov,D.I.Ro‘zieva,M.H.Usmonboeva, Pedagogika.Darslik, Nizomiy nomli TDPU, 2013y
- 5.Holliqov.A, Pedagogik mahorat,T.,2011yil.
- 6.Avliyaqulov.N.X,Musaeva.N.N, Pedagogik texnologiya . – T.: Cho‘lpon NMIU,2012y.
7. Ochilova G. Pedagogika. T.: 2005
- 8.G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent 2010
- 9.Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. O‘quv Qo‘llanma. - T.: Uzbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, 2006. -160 b.
10. Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov Piter, 2016 g. 624 s.
11. Ziyamuxamedov B. “Pedagogika” Toshkent. Tamaddun. 2014.
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. “Umumiy psixologiya” T.: Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. -480b.
13. Iskandarova SH.T., SHoyimova SH.S., Mirzaeva N.A. Psixologiya. Darslik - Toshkent, 2010. 266 b.

14. Karimova V.M. Psixologiya. T.: SHark, 2000. -256b.
15. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vldos, 2003. 1-2 t. -240s.
16. Pedagogika. O'quv qo'llanma. SH.A.Abdullaeva, D.A.Axatova, .B.Sobirov, S.S.Sayitov. - T.: Fan, 2004.
17. Подласый I.P. "Pedagogika" 2 tomlik kitob. Moskva. Vldos. 1999.
18. Umarov B.M. Psixologiya. Nopedagogik oliy ta'lim yunalishi talabalari uchun darslik. Toshkent, 2011, - 480 bet.
19. Shoyimova SH.S. Mulokot psixologiyasi. Ukuv -uslubiy kulanma Toshkent, 2017. 40 b.

PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA SILLABUS

Modulning toʻliq nomi	Psixologiya va pedagogika		
Modul kodi:	Kredit soni: 2 Shundan: Joriy nazorat – kredit 2 -semestr yakunida talabala egallagan bilim, koʻnikmalar test sinovlari asossida nazorat qilinadi.	Modul oʻtilish davri: 2-kursning 4-semestri	ECTS value:6 https://studyinfocus.ru/uchebnye-kredity-ects/
Taʼlim yoʻnalishi	5320500	Biotexnologiya (Farmatsevtik biotexnologiya)	
Modulning davomiyligi	18- hafta		
Oʻquv soatlari hajmi:	Jami soat: 72 Shundan: Maʼruza:10 Amaliy mashgʻulot: 26 Mustaqil taʼlim: 36 Yakuniy nazorat – 0 kredit (oʻtkazilishi majburiy)		
Oʻquv modulining statusi	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy modular		
OTM nomi, manzili	Toshfarmi		
Kafedra nomi	Ijtimoiy fanlar kafedrası		
Mazkur kursning oʻqituvchilari haqida maʼlumot	L.B.Sultonova D.O.Kamalova		
Mashgʻulot vaqti va joyi	Ijtimoiy fanlar kafedrası		
Modulning mazmuni	Psixologiya va pedagogika modul fanini oʻzlashtirish orqali umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini eʼtiborga olib, taʼlim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish, uzluksiz taʼlim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish, pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, taʼlimning psixologik pedagogik qonuniyatlari hamda tamoyillariga tayangan holda tegishli qarorlar qabul qilish kabi bilim, koʻnikma va malakaga ega boʻladilar.		
Prerekvizitlar	2020-yil 23-sentyabrdagi 637-Oʻzbekiston Respublikasining Taʼlim toʻgʻrisidagi Qonuni.		
Postrekvizitlar	Yoʻq		
Modulning maqsadi	Psixologiya va pedagogika modul fanini talabalarida oʻqitishdan maqsad boʻlgʻusi kadrlarda		

	pedagogik va psixologik bilim, ko'nikma va malakalar qolaversa tayanch, maxsus kompetensiyalar shakllangan mutaxasislarni yetishtirib chiqarishdir.
Modulning vazifalari	Ushbu kursda belgilangan maqsad asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning quyidagi vazifalarini hal etadi: -bo'lajak mutaxasislarning "Psixologiya va pedagogika" kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradi hamda tushuncha va qarashlar bilan qurollanadi; -ta'lim oluvchilarni milliy mafkura asosida tarbiyalash; -talabaning kasbiy ta'lim asoslari bo'yicha bilimlarni rivojlantirish; -o'qituvchi va o'quvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarni aniqlash; -kasbiy ta'lim psixologikva pedagogik bilimlar bilan qurollantirish vazifasini bajaradi.
Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar	talaba, ushbu fanning, maqsadi, vazifalari, kasb ta'limning falsafiy metodologik asoslari, kasb ta'limning ilmiy-metodik mohiyati va ilmiy-tadqiqot metodlari, uzluksiz ta'limni standartlashtirish asoslari va professional ta'limning ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi mazmuni; DTS mazmuni; kasb-hunar kollejlarda tibbiyot mutaxassisligi fanlarini o'qitish nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish; dars rejasini tuzish, fanning o'quv dasturlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; farmatsevtik fanlarni o'qitish shakllari, vositalari va usullarni tanlash; farmatsevtik fanlari o'qitish jarayonida interfaol usullarni amalga tadbiq etish texnologiyalarni qo'llash; didaktik vosita turlarini mazmuni, ularni ishlab chiqish va uning qo'llanilishi; farmatsevtik fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash; kasbiy ta'lim dars turlari va unga qo'yilgan asosiy talablar; farmatsevtik fanlar darslarini tahlil qilish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi; -me'yoriy xujjatlar bilan ishlash, o'zgartirishlar kiritish; farmatsevtik fanlarni o'tishda didaktik materialni tanlash; kasbiy ta'limda o'qituvchining faoliyatini rejalashtirish, o'quv jarayonni didaktik loyihalashtirish; o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish; kasbiy ta'lim va farmatsevtik fanlardan shaxsiy metodikalar ishlab chiqarish; tibbiy fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarni, taqvimiy-mavzuviy rejalarni ishlab chiqish; farmatsevtik fanlarni o'qitish shakllari va usullarini tanlash, amalga oshirish texnologiyasini ishlab chiqarish; dars jarayonida farmatsevtik fanlarni o'zlashtirishda interfaol usullarni tatbig' etish malakalariga va ko'nikmalariga ega bo'ladi; - kasb-hunar kollejlarda farmatsevtik fanlarini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish: o'quv maqsadlari va natijalarini belgilash, dars resurslari va o'qitish strategiyasini aniqlash, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqarish; didaktik vositalarini ishlab chiqish va ularni qo'llash nazorat turlarini ishlab chiqish va qullash; klinik fanlarni o'qitishda darslarga qo'yilgan darslarni rasmiylashtirish kabi kompetensiyalariga ega bo'ladi.
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
Ta'minot	videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

Kutilayotgan natijalar:

Modulni muvaffaqiyatli yakunlagan talaba biladi va bajara oladi:

- pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy mahorati haqidagi bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy metodik ishlari, kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI



PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA
MODULNING ISHCHI O'QUV DASTURI

Ta'lim sohasi: 510000 – Sog'liqni saqlash
320000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari
Ta'lim yo'nalishi: 5320500-Biotexnologiya (Farmatsevtik biotexnologiya)

TOSHKENT – 2021

